

**ЎзДЖТУ  
ҳузуридаги  
РИАИМ**

**Ўқув-услубий  
мажмуа**

**Лотин тили  
тингловчилари  
учун**

**Ўқув-услубий  
мажмуа**

**2019**

**Лотин тили  
Тилшунослик назариясининг тил  
амалиётига интеграцияси**

Модулнинг ўқув-услубий мажмуаси Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълими ўқув-методик бирлашмалари фаолиятини Мувофиқлаштирувчи кенгашининг 2019 йил 18 октябрдаги 5 – сонли баённомаси билан маъқулланган ўқув дастури ва ўқув режасига мувофиқ ишлаб чиқилган.

**Тузувчи:**

ЎзДЖТУ проф,  
филол.ф.д. Г.И .Халлиева

**Такризчи:**

ЎзДЖТУ доценти ,ф.ф.н.  
С.Султонсаидова

*Ўқув -услубий мажмуа ЎзРИАИМ Кенгашининг 2019 йил 27 сентябрдаги 9 - сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган*

## МУНДАРИЖА

<b>I.</b>	<b>ИШЧИ ДАСТУР</b>	<b>4-12</b>
<b>II.</b>	<b>МОДУЛНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ</b>	<b>13-22</b>
<b>III.</b>	<b>НАЗАРИЙ МАТЕРИАЛЛАР</b>	<b>23-46</b>
<b>IV.</b>	<b>АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАР МАТЕРИАЛЛАРИ</b>	<b>47-75</b>
<b>V</b>	<b>ГЛОССАРИЙ</b>	<b>76-77</b>
<b>VI.</b>	<b>КЕЙСЛАР БАНКИ</b>	<b>78-80</b>
<b>VII.</b>	<b>АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ</b>	<b>81</b>

# І. ИШЧИ ЎҚУВ ДАСТУРИ

## КИРИШ

Дастур Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июндаги “Олий таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сонли, 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли, 2019 йил 27 августдаги “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сонли Фармонлари, шунингдек 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–2909-сонли қарорида белгиланган устувор вазифалар мазмунидан келиб чиққан ҳолда тузилган бўлиб, у олий таълим муассасалари педагог кадрларининг касб маҳорати ҳамда инновацион компетентлигини ривожлантириш, соҳага оид илғор хорижий тажрибалар, янги билим ва малакаларни ўзлаштириш, шунингдек амалиётга жорий этиш кўникмаларини такомиллаштиришни мақсад қилади.

Дастур доирасида берилётган мавзулар таълим соҳаси бўйича педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш мазмуни, сифати ва уларнинг тайёргарлигига қўйиладиган умумий малака талаблари ва ўқув режалари асосида шакллантирилган бўлиб, унинг мазмуни жамият ривожини ва таълим–тарбия жараёнининг инновацион масалалари, олий таълимнинг норматив-ҳуқуқий асослари ва қонунчилик ҳужжатлари, илғор таълим технологиялари ва педагогик маҳорат, таълим жараёнларида ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш, амалий хорижий тил, тизимли таҳлил ва қарор қабул қилиш асослари, махсус фанлар негизида илмий ва амалий тадқиқотлар, ўқув жараёнини ташкил этишнинг замонавий услублари бўйича сўнгги ютуқлар, педагогнинг креатив компетентлигини ривожлантириш, глобал Интернет тармоғи, мультимедиа тизимларидан

фойдаланиш ва масофавий ўқитишнинг замонавий шакллари кўллаш бўйича тегишли билим, кўникма, малака ва компетенцияларни ривожлантиришга йўналтирилган.

Қайта тайёрлаш ва малака ошириш йўналишининг ўзига хос хусусиятлари ҳамда долзарб масалаларидан келиб чиққан ҳолда дастурда тингловчиларнинг махсус фанлар доирасидаги билим, кўникма, малака ҳамда компетенцияларига қўйиладиган талаблар такомиллаштирилиши мумкин.

### **Курснинг мақсади ва вазифалари**

“Тилшунослик назариясининг тил амалиётига интеграцияси” **модулининг мақсади:** Олий таълим муассасалари педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш курсининг мақсади педагог кадрларнинг инновацион ёндошувлар асосида ўқув-тарбиявий жараёнларни юксак илмий-методик даражада лойиҳалаштириш, соҳадаги илғор тажрибалар, замонавий билим ва малакаларни ўзлаштириш ва амалиётга жорий этишлари учун зарур бўладиган касбий билим, кўникма ва малакаларини такомиллаштириш, шунингдек уларнинг ижодий фаоллигини ривожлантиришдан иборат.

“Тилшунослик назариясининг тил амалиётига интеграцияси” **модулининг вазифалари:**

филология ва тилларни ўқитиш: шарқ тиллари йўналишида педагог кадрларнинг замонавий касбий билим, кўникма, малакаларини такомиллаштириш ва ривожлантириш;

педагогларнинг ижодий-инновацион фаоллик даражасини ошириш;

- мутахассислик фанларини ўқитиш жараёнига замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ва хорижий тилларни самарали татбиқ этилишини таъминлаш;

- махсус фанлар соҳасидаги ўқитишнинг инновацион технологиялари ва илғор хорижий тажрибаларини ўзлаштириш;

Филология ва тилларни ўқитиш: шарқ тиллари йўналишида қайта тайёрлаш ва малака ошириш жараёнларини фан ва ишлаб чиқаришдаги инновациялар билан ўзаро интеграциясини таъминлаш.

### **Курс якунида тингловчиларнинг билим, кўникма ва малакалари ҳамда компетенцияларига қўйиладиган талаблар**

“Олий таълимнинг норматив-ҳуқуқий асослари”, “Илғор таълим технологиялари ва педагогик маҳорат”, “Таълим жараёнларида ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш”, “Амалий хорижий тил”, “Тизимли таҳлил ва қарор қабул қилиш асослари” модуллари бўйича тингловчиларнинг билим, кўникма ва малакаларига қўйиладиган талаблар тегишли таълим соҳаси бўйича педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш мазмуни, сифати ва уларнинг тайёргарлиги ҳамда компетентлигига қўйиладиган умумий малака талаблари билан белгиланади.

Махсус фанлар бўйича тингловчилар қуйидаги янги билим, кўникма, малака ҳамда компетенцияларга эга бўлишлари талаб этилади:

#### **Тингловчи:**

- тил ўқитишнинг умумевропа стандартлари талабларини;
- шарқ тиллари ўқитишнинг назарий ва коммуникатив ёндашув асосларини;
- тил ўқитиш методлари ва тамойилларини;
- чет тили таълимида баҳолаш ва унинг мезон ва меъёрларини;
- шарқ тиллари таълимида CEFR тамойилларининг ўрнини;
- шарқ тилларини ўқитишда хорижий мамлакатлардаги тажрибани ўрганиб чиқиши;
- шарқ тилларини ўқитишдаги хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибасини амалиётда қўллаши
- аудио ва видео материаллардан фойдаланиши;
- компаративистикада шарқшуносликнинг устувор йўналишлари ва уларни амалга ошириш механизмларини *билиши* керак.

### **Тингловчи:**

- ўз касбий фаолияти соҳасида олий таълимнинг ўқитишга оид меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлари асосида иш юритиш;

- анъанавий баҳолаш ва CEFRга асосланган тил компетенцияларини баҳолаш тизими ўртасидаги фарқларни аниқлай олиш;

- тил ўқитишга оид муаммоларни таҳлил қилиш;

- меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларни амалиётда қўллаш *қўникмаларига* эга бўлиши лозим.

### **Тингловчи:**

- тил ва нутқ материалларини танлаш тамойиллари, аутентик манбалар билан ишлаш;

- дарсларнинг технологик мажмуаси (универсал модель, технологик карта, иловалар)ни яратиш;

- тил ўқитиш методикаси бўйича тўпланган маълумотларни амалда қўллаш олиш;

- таълим олувчиларнинг билиш қобилиятларини баҳолай олиш;

- ўқув жараёнини режалаштириш, баҳолаш, фидбек механизмларини амалга ошириш;

- талабаларнинг ўз-ўзини баҳолашга қаратилган портфолиосини ишлаб чиқиш *малакаларига* эга бўлиши зарур.

### **Тингловчи:**

- меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида таълим ва тарбия жараёнини ташкил этиш ва бошқариш;

- интерактив мултимедиа воситаларидан фойдаланиш;

- ўзаро дарсларни кузатиш ва фидбек бериш;

- чет тили таълимида таълим технологияларни қўллаш;

- чет тили таълимида баҳолашга оид қарорлар қабул қилиш *компетенцияларига* эга бўлиши зарур.

## **Модулни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича тавсиялар**

“Тил ўқитишнинг хориж тажрибаси” курси маъруза ва амалий машғулотлари шаклида олиб борилади.

Курсни ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий методлари, савол-жавоб, ахборот-коммуникация технологиялари қўлланилиши назарда тутилган:

- маъруза дарсларида замонавий компьютер технологиялари ёрдамида презентацион ва электрон-дидактик технологиялардан фойдаланиш;

- ўтказиладиган машғулотларда техник воситалардан, экспресс-сўровлар, тест сўровлари, ақлий ҳужум, гуруҳли фикрлаш, кичик гуруҳлар билан ишлаш, коллоквиум ўтказиш ва бошқа интерактив таълим усуллари қўллаш назарда тутилади.

## **Модулнинг ўқув режадаги бошқа модуллар билан боғлиқлиги ва узвийлиги**

Модул мазмуни ўқув режадаги “Шарқ филологиясини ўқитишнинг замонавий методлари”, “Шарқ филологиясида компаративистика”, “Электрон педагогика асослари ва педагогнинг шахсий, касбий ахборот майдонини лойиҳалаш” ўқув модуллари билан узвий боғланган ҳолда педагогларнинг касбий педагогик тайёргарлик даражасини орттиришга хизмат қилади.

## **Модулнинг олий таълимдаги ўрни**

Модулни ўзлаштириш орқали тингловчилар Ўзбекистоннинг миллий тикланишдан миллий юксалиш босқичида олий таълим вазифаларига доир концептуал ғояларнинг сиёсий ҳамда ҳуқуқий-фалсафий асосларини ўрганиш, уларни таҳлил этиш, амалда қўллаш ва баҳолашга доир касбий малакага эга бўладилар.



## Модул бўйича соатлар тақсимоти

№	Модул мавзулари	Тингловчининг ўқув юкламаси, соат				
		Ҳаммаси	Аудитория ўқув юкламаси			Мустақил таълим
			Жами	жумладан		
				Назай	Амалий машғулот	
1.	Тилшунослик фанида лингвистик методлар масаласи.	4	4	2		
2.	Қиёсий-тарихий тилшуносликнинг шаклланиши ва қиёсий-тарихий методнинг яратилиши.	4	4	2		
3	Умумий тилшунослик фанининг асосчиси В. фон Гумбольдтнинг тил назарияси.				2	
4.	Прага, Копенгаген, Америка структурал мактабларининг асосий ғоялари.	2	2		2	
5	Прага структурал мактабида “Гапни актуал бўлакларга ажратиш” (В.Матезиус) методининг яратилиши.				2	
	<b>Жами: 10 соат</b>	10	10	4	6	

### МАЪРУЗА МАШҒУЛОТЛАР МАЗМУНИ

#### 1-мавзу: Тилшунослик фанида лингвистик методлар масаласи.

##### Метод, методика, методология, ёндашув тушунчалари

Атрофдаги табиатни, инсон ҳаёт кечираётган жамиятни ва инсоннинг ўзини, унинг фаолият кўринишларини илмий таҳлил этиш ва билиш интеллектуал фаолиятнинг энг олий шаклидир. Бу фаолият оддий билишдан, яъни кундалик ҳаёт эҳтиёжларини қондиришга йўналтирилган билиш

истагидан, биринчи навбатда, ўз мақсади ва тизимли равишда амалга оширилиши билан тубдан фарқ қилади. Иккинчидан эса, илмий билиш жараёнида махсус восита ва усулларга мурожаат қилинади.

Тил нафақат инсонни, балки кишилик жамиятини ҳам барпо этган, унинг тараққиётига сабаб бўлган ва ҳозирги кунда ҳам турли мамлакатларни бир-бирига боғлаб турган буюк неъмат, қудратли кучдир. Шунинг учун тилларни ўрганиш, тил таълимининг энг самарали интенсив методларини ишлаб чиқиш масалаларига ҳамиша катта эътибор қаратиб келинган, тил ўқитиш методлари мунтазам такомиллаштириб борилган.

## **2-мавзу: Қиёсий-тарихий тилшуносликнинг шаклланиши ва қиёсий-тарихий методнинг яратилиши.**

### **Қиёсий-тарихий тилшуносликнинг юзага келиши**

XVIII асргача тил ўзгармас ходиса деб ҳисобланган. Айнан мана шу асрдан бошлаб тилга бундай қараш ўзгарди. XVIII асрнинг диққатга сазовор энг катта хизмати шунда бўлдики, у тилга ўзгарувчан, ривожланувчан ходиса сифатида баҳо берди. Аниқроғи, ушбу даврда Шарл де Брос, Жан Жак Руссо, Монбоддо, Адам Смит, Пристли, Гердер ва бошталар тилларнинг тарихий тараққиёти ғоясини қўллаб-қувватлардилар ва уни ривожлантирдилар.

XVIII асрнинг биринчи чорагида тил соҳасидаги кузатишлар ва улар асосида келиб чиққан жиддий фикрлар фактларни йиғиш, уларга эътибор бериш ғоясидан қиёсий-тарихий ғояга – нуқтаи назарга ўтишга ўтилди. Тилшуносликка алоҳида фан сифатида қараш ғояси ушбу нуқтаи назарларнинг ўзгаришига сабаб бўлди. Аслида тиллар ўртасида ўхшашлик борлиги XVIII асрдан анча олдин айрим аниқланган бўлсада, аммо узок вақтлар давомида ушбу ўхшашликнинг сабаблари илмий жиҳатдан ёритиб берилмаган, асослаб берилмаган эди.

## **АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАР МАЗМУНИ**

### **1-амалий машғулот:**

**Умумий тилшунослик фанининг асосчиси В. фон Гумбольдтнинг тил назарияси.**

### **XIX асрда қиёсий-тарихий тилшуносликнинг юзага келиши**

XVIII асргача тил ўзгармас ҳодиса деб ҳисобланган. Айнан мана шу асрдан бошлаб тилга бундай қараш ўзгарди. XVIII асрнинг диққатга сазовор энг катта хизмати шунда бўлдики, у тилга ўзгарувчан, ривожланувчан ҳодиса сифатида баҳо берди. Аниқроғи, ушбу даврда Шарл де Брос, Жан Жак Руссо, Монбоддо, Адам Смит, Пристли, Гердер ва бошталар тилларнинг тарихий тараққиёти ғоясини қўллаб-қувватлардилар ва уни ривожлантирдилар.

### **2-амалий машғулот:**

**Прага, Копенгаген, Америка структурал мактабларининг асосий ғоялари.**

**Структурал лингвистика ва унинг мактаблари.** Структурализм атамаси ва тушунчаси дастлаб голланд файласуфи Х.И. Боаснинг 1939-йилда нашр қилинган мақоласида тилга олинган бўлиб, у тилни белгилар системаси сифатида ўрганувчи, тилшуносликнинг асосий компонентлари – фонетика, грамматика, лексика ўртасидаги шзаро боьланиш ва муносабатларни текширувчи, тилнинг тузилиши тшърисидаги таолимот ьисобланади. Бу аслида Фердинанд де Соссюр томонидан билдирилган ьоя асосида юзага келган лингвистик йщналиш бщлиб, XX асрнинг 30-йилларидан структурал лингвистика маьюмини олди ва Чехословакия ьамда Дания олимлари томонидан ривожлантирилди.

### **3-амалий машғулот:**

**Прага структурал мактабида “Гапни актуал бўлакларга ажратиш”**

**(В.Матезиус) методининг яратилиши.**

### **Прага стурктуралиزمи**

Структурализм – структурал лингвистика XX асрнинг 20-йилларининг охирида (1926) юзага келиб, ҳозирги замон тилшунослигининг ўзига хос

етақчи оқимларидан, йўналишларидан бири бўлиб қолди. Ушбу тилшунослик тил структурасини (қурилишини) тил назариясининг асоси деб билди.

Структурал лингвистика тилни ишоралар (белгилар) системаси сифатида ўрганеди ва унинг шартли белгилик хусусияти билангина қизиқади. У тилдаги белгиларнинг муносабатлари, оппозициялари ёки функцияларига алоҳида эътибор берганидан тил бирликларидан бири мавжуд бўлгани учунгина бошқаси мавжуддир деб ҳисоблайди. Структурал лингвистика ўзаро муносабатлардан мустақил равишдаги материянинг ёки реалликнинг бўлишини инкор қилади.

### **ЎҚИТИШ ШАКЛЛАРИ:**

Мазкур модул бўйича қуйидаги ўқитиш шаклларидан фойдаланилади:

- маърузалар, амалий машғулотлар (маълумотлар ва технологияларни англаб олиш, ақлий қизиқишни ривожлантириш, назарий билимларни мустаҳкамлаш);

- давра суҳбатлари (қўрилаётган лойиҳа ечимлари бўйича таклиф бериш қобилиятини ошириш, эшитиш, идрок қилиш ва мантиқий хулосалар чиқариш);

- баҳс ва мунозаралар (лойиҳалар ечими бўйича далиллар ва асосли аргументларни тақдим қилиш, эшитиш ва муаммолар ечимини топиш қобилиятини ривожлантириш).

## II. МОДУЛНИ ЎҚИТИШДА ФОЙДАЛАНИЛАДИГАН ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИ.

### 1. Хулосалаш» (Резюме, Веер) методи

**Методнинг мақсади:** Бу метод мураккаб, кўптармоқли, мумкин қадар, муаммоли характеридаги мавзуларни ўрганишга қаратилган. Методнинг моҳияти шундан иборатки, бунда мавзунинг турли тармоқлари бўйича бир хил ахборот берилади ва айти пайтда, уларнинг ҳар бири алоҳида аспектларда муҳокама этилади. Масалан, муаммо ижобий ва салбий томонлари, афзаллик, фазилат ва камчиликлари, фойда ва зарарлари бўйича ўрганилади. Бу интерфаол метод танқидий, таҳлилий, аниқ мантиқий фикрлашни муваффақиятли ривожлантиришга ҳамда ўқувчиларнинг мустақил ғоялари, фикрларини ёзма ва оғзаки шаклда тизимли баён этиш, ҳимоя қилишга имконият яратади. “Хулосалаш” методидан маъруза машғулотларида индивидуал ва жуфтликлардаги иш шаклида, амалий ва семинар машғулотларида кичик гуруҳлардаги иш шаклида мавзу юзасидан билимларни мустаҳкамлаш, таҳлили қилиш ва таққослаш мақсадида фойдаланиш мумкин.

#### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик гуруҳларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, ҳар бир гуруҳга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туширилган тарқатм



ҳар бир гуруҳ ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз мулоҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қилади;



навбатдаги босқичда барча гуруҳлар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўлдирилади ва мавзу

**Намуна:**

Дифференциал, интеграцион, масофавий таълим					
Дифференциал т.		Интеграцион таълим		масофавий таълим	
афзаллиги	камчилиги	афзаллиги	камчилиги	афзаллиги	камчилиги

**Хулоса:**

## 2. «ФСМУ» методи

**Технологиянинг мақсади:** Мазкур технология иштирокчилардаги умумий фикрлардан хусусий хулосалар чиқариш, таққослаш, қиёслаш орқали ахборотни ўзлаштириш, хулосалаш, шунингдек, мустақил ижодий фикрлаш кўникмаларини шакллантиришга хизмат қилади. Мазкур технологиядан маъруза машғулотларида, мустаҳкамлашда, ўтилган мавзунини сўрашда, уйга вазифа беришда ҳамда амалий машғулот натижаларини таҳлил этишда фойдаланиш тавсия этилади.

### Технологияни амалга ошириш тартиби:

- қатнашчиларга мавзуга оид бўлган якуний хулоса ёки ғоя таклиф этилади;
- ҳар бир иштирокчига ФСМУ технологиясининг босқичлари ёзилган қоғозларни тарқатилади:



- иштирокчиларнинг муносабатлари индивидуал ёки гуруҳий тартибда тақдимот қилинади.

ФСМУ таҳлили қатнашчиларда касбий-назарий билимларни амалий машқлар ва мавжуд тажрибалар асосида тезроқ ва муваффақиятли

ўзлаштирилишига асос бўлади.

**Намуна.**

**Фикр:** “Япония таълим тизими энг самарали таълим тизимларидан биридир.”.

**Топшириқ:** Мазкур фикрга нисбатан муносабатингизни ФСМУ орқали таҳлил қилинг.

### 3. “КОНЦЕПТУАЛ ЖАДВАЛ”

**Концептуал жадвал** ўрганилаётган ҳодиса, тушунча, фикрларни икки ва ундан ортиқ жиҳатлари бўйича таққослашни таъминлайди. Тизимли фикрлаш, маълумотларни тузилмага келтириш, тизимлаштириш кўникмаларини ривожлантиради.

Тингловчилар:

1. Концептуал жадвални тузиш қондаси билан танишадилар. Таққосланадиганларни аниқлайдилар, олиб бориладиган таққосланишлар бўйича хусусиятларни ажратадилар

2. Алоҳида ёки кичик гуруҳларда концептуал жадвални тўлдирадилар:

- *узунлик бўйича* таққосланадиган (фикр, назариялар) жойлаштирилади;
- *ётиги бўйича* таққосланиш бўйича олиб бориладиган турли тавсифлар ёзилади.

3. Иш натижаларининг тақдимоти.

**«Иқтисодий ривожланган хорижий давлатларда таълим тизими»  
мавзусидаги концептуал жадвал (лавҳа)**

<b>Иқтисодий ривожланган хорижий давлатлар (ўқитувчи ва тингловчиларнинг ҳохишига кўра)</b>	<b>Таълим тизими</b>			
	<b><i>Мактабгача таълим</i></b>	<b><i>Умумий ўрта таълим</i></b>	<b><i>Ўрта махсус таълим</i></b>	<b><i>Олий таълим</i></b>
Америка Қўшма Штатлари				
Франция				
Германия				
Япония				
Китай				
Жанубий Корея				

## 4. ВЕНН ДИАГРАММАСИ

**ВЕНН ДИАГРАММАСИ-2** ва 3 жихатларни ҳамда умумий томонларини солиштириш ёки таққослаш ёки қарама-қарши қўйиш учун қўлланилади.

Тизимли фикрлаш, солиштириш, таққослаш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривожлантиради.

### **Тингловчилар:**

1) кичик гурҳларда Венн диаграммасини тузадилар ва кесишмайдиган жойларида ривожланган давлатлар таълим тизимига оид фикрларини ойдинлаштириб олиб, тўлдирадилар.

2) жуфтликларга бирлашадилар, ўзларининг диаграммаларини таққослайдилар ва тўлдирадилар.

3) доираларнинг кесишувчи жойида икки доира учун умумий бўлган фикрлар рўйхатини тузади.

4) иш натижаларининг тақдимоти.



## 5. Икки қисмли кундаликлар

Икки қисмли кундаликлар ўқувчиларга матн мазмунини ўз шахсий тажрибаси билан чамбарчас боғлаш, ўзининг табиий қизиқувчанлигини қондириш имконини беради. Айниқса, ўқувчилар қандайдир адабиётларни ўқув аудиториясидан ташқари ўқиб чиқиш топшириғини олишганида икки қисмли кундаликлар фойдалидир.



Икки қисмли кундалик учун ўқувчилар ёзилмаган қоғознинг ўртасидан тик чизик ўтказиб, уни иккига ажратишлари керак. Қоғознинг чап томонига матннинг қайси қисми уларга энг кўп таассурот қолдирганини қайд этишади. Эҳтимол, у қандайдир хотирани уйғотар ёки ҳаётларида юз берган воқеаларни эсга туширар, ёки шунчаки таажжубга солар. Ёхуд уларнинг калбида кескин норозилик ҳиссини уйғотар. Ўнг томонида улар шарҳ беришлари керак: айти шу цитатани ёзишга уларни нима мажбур этди? Уларга қандай фикрлар уйғотди? Шу муносабат билан уларда қандай савол туғилди? Қисқаси, матнни ўқиркан, ўқувчилар вақти-вақти билан тўхташлари ва ўзларининг қўшалок кундаликларида шундай белгилар қўйиб боришлари керак.

Қуйида ана шундай икки қисмли кундаликка мисол келтирамиз:

Ўзбекистонда узлуксиз таълим тизими	
Японияда “Дзюку” тўлдирувчи мактаблари	
Жанубий Кореяда чет тилини ўргатувчи “хагвон”–қўшимча мактаблар	
Германияда бошланғич таълим хусусиятлари	
Францияда ўрта таълим: коллежлар ва лицейлар	

## 6. Б/Б/Б чизмаси

**Б/Б/Б чизмаси**-Биламан/ Билишни хоҳлайман/ Билиб олдим. Мавзу, матн, бўлим бўйича изланувчиликни олиб бориш имконини беради.

Тизимли фикрлаш, тузилмага келтириш, таҳлил қилиш кўникмаларини ривож-лантиради.

Талабалар:

1. Жадвални тузиш қоидаси билан танишадилар. Алоҳида /кичик гуруҳларда жадвални расмийлаштирадилар.

2. “Мавзу бўйича нималарни биласиз” ва “Нимани билишни хоҳлайсиз” деган саволларга жавоб берадилар (олдиндаги иш учун йўналтирувчи асос яратилади). Жадвалнинг 1 ва 2 бўлимларини тўлдирадилар.

3. Маърузани тинглайдилар, мустақил ўқийдилар.

4. Мустақил кичик гуруҳларда жадвалнинг 3 бўлимни тўлдирадилар

<b>Б/БХ/Б ЖАДВАЛИ</b>		
<b>Биламан</b>	<b>Билишни хоҳлайман</b>	<b>Билиб олдим</b>

### **7. Бир неча манбалардан фойдаланиб маъруза тайёрлаш.**

Талабалар одатда семинар машғулотларида жавоб бериш учун маърузалар тайёрлашади. Бунинг учун талабаларга маърузалар тайёрлаш йўллари ва имкониятларини ўргатиш лозим. Ана шундай имкониятлардан бири-бу бир неча манбалардан фойдаланиб маъруза тайёрлаш ҳисобланади. Мазкур маъруза жадвал ҳолатида тайёрланиб, талабага жавоб бериш учун таянч сигнал вазифасини бажаради. Бунинг учун талаба беш устундан ва материалнинг ҳажмига қараб бир неча устундан иборат оддий жадвал тузади. Юқоридаги қатордаги устунларда ахборотнинг турли манбалари номини кўрсатишади: дарсликлар, журнал мақолалари, интернет материаллари, интервьюлар.

Чап томондан биринчи катакнинг ҳар бир қаторига талаба мавзуга тегишли ёки жавоб олиниши зарур бўлган саволни ёзади:

<b>Саволлар</b>	<b>Дарслик</b>	<b>Журнал мақолалари</b>	<b>Интернет материаллари</b>	<b>Интервью</b>
Дифференциал таълим				

нимани англатади?				
Тўлдирувчи таълим турла-рини айтинг.				
Интеграцион таълимнинг мазмун моҳияти.				
Хориж тажри-басида икти-дорли талаба-лар билан иш-лаш масалалари				
Модулли таъ-лимнинг афзал-лиги нимада?				
Модулли-кредит тизими мазмун моҳия-ти.				

#### 8. “Модулли-кредит тизими” мавзусига доир тоифалаш жадвали

“Модулли-кредит тизими”тушун-часи тавсифи	<b>Кредит технологияси бўйича тингловчилар билимини баҳолаш методикаси</b>	“Модулли-кредит тизими”нинг хусусиятлари	“Модулли-кредит тизими”нинг тамойиллари
---	--	--	---

#### 9. “Ассисмент” методи.

**Методнинг мақсади:** мазкур метод таълим олувчиларнинг билим даражасини баҳолаш, назорат қилиш, ўзлаштириш кўрсаткичи ва амалий кўникмаларини текширишга йўналтирилган. Мазкур техника орқали таълим олувчиларнинг билиш фаолияти турли йўналишлар (тест, амалий кўникмалар, муаммоли вазиятлар машқи, қиёсий таҳлил, симптомларни аниқлаш) бўйича ташҳис қилинади ва баҳоланади.

#### **Методни амалга ошириш тартиби:**

“Ассисмент” лардан маъруза машғулотларида талабаларнинг ёки катнашчиларнинг мавжуд билим даражасини ўрганишда, янги маълумотларни баён қилишда, семинар, амалий машғулотларда эса мавзу ёки маълумотларни ўзлаштириш даражасини баҳолаш, шунингдек, ўз-ўзини баҳолаш мақсадида индивидуал шаклда фойдаланиш тавсия этилади. Шунингдек, ўқитувчининг ижодий ёндашуви ҳамда ўқув мақсадларидан

келиб чиқиб, ассесментга қўшимча топшириқларни киритиш мумкин.

**Намуна.** Ҳар бир катакдаги тўғри жавоб 5 балл ёки 1-5 балгача баҳоланиши мумкин.



### Тест

- 1. Японияда ўқиш қайси фасл ва ойда бошланади?
- ноябрь
- сентябрь
- Апрель



### Қиёсий таҳлил

- Фарб ва Шарқ таълим тизимини қиёсий таҳлил қилинг.



### Тушунча таҳлили

- “Кредит тизими” тушунчасини тушунтиринг...



### Амалий кўникма

- Илғор хорижий тажрибалардан биттасини (метод) амалда кўрсатиб беринг.

## 10. “Инсерт” методи

**Методнинг мақсади:** Мазкур метод талабаларчиларда янги ахборотлар тизимини қабул қилиш ва билимларни ўзлаштирилишини енгиллаштириш мақсадида қўлланилади, шунингдек, бу метод тингловчилар учун хотира машқи вазифасини ҳам ўтайди.

### Методни амалга ошириш тартиби:

- ўқитувчи машғулотга қадар мавзунинг асосий тушунчалари мазмуни ёритилган инпут-матнни тарқатма ёки тақдимот кўринишида тайёрлайди;
- янги мавзу моҳиятини ёритувчи матн таълим олувчиларга тарқатилади ёки тақдимот кўринишида намоёниш этилади;
- таълим олувчилар индивидуал тарзда матн билан танишиб чиқиб, ўз шахсий қарашларини махсус белгилар орқали ифодалайдилар. Матн билан ишлашда талабалар ёки қатнашчиларга қуйидаги махсус белгилардан фойдаланиш тавсия этилади:

Белгилар	1-матн	2-матн	3-матн
“V”-таниш маълумот.			
“?”-мазкур маълумотни тушунмадим, изоҳ керак.			
“+” бу маълумот мен учун янгилик.			
“– ” бу фикр ёки мазкур маълумотга қаршиман			

Белгиланган вақт якунлангач, таълим олувчилар учун нотаниш ва тушунарсиз бўлган маълумотлар ўқитувчи томонидан таҳлил қилиниб, изоҳланади, уларнинг моҳияти тўлиқ ёритилади. Саволларга жавоб берилади ва машғулот якунланади.

### 11. “Тушунчалар таҳлили” методи

**Методнинг мақсади:** мазкур метод талабалар ёки катнашчиларни мавзу бўйича таянч тушунчаларни ўзлаштириш даражасини аниқлаш, ўз билимларини мустақил равишда текшириш, баҳолаш, шунингдек, янги мавзу бўйича дастлабки билимлар даражасини ташхис қилиш мақсадида қўлланилади.

Методни амалга ошириш тартиби:

- иштирокчилар машғулот қоидалари билан таништирилади;
- талабаларга мавзуга ёки бобга тегишли бўлган сўзлар, тушунчалар номи туширилган тарқатмалар берилади (индивидуал ёки гуруҳли тартибда);
  - талабалар мазкур тушунчалар қандай маъно англатиши, қачон, қандай ҳолатларда қўлланилиши ҳақида ёзма маълумот берадилар;
  - белгиланган вақт якунига етгач ўқитувчи берилган тушунчаларнинг тўғри ва тўлиқ изоҳини ўқиб эшиттиради ёки слайд орқали намойиш этади;
  - ҳар бир иштирокчи берилган тўғри жавоблар билан ўзининг

шахсий муносабатини таққослайди, фарқларини аниқлайди ва ўз билим даражасини текшириб, баҳолайди.

**Намуна:** “Модулдаги таянч тушунчалар таҳлили”

<b>Тушунчалар</b>	<b>Сизнингча бу тушунча қандай маънони англатади?</b>	<b>Қўшимча маълумот</b>
<b>Тьютор</b>	устоз, мураббий вазифасини бажаради	
<b>эдвайзер</b>	тингловчиларнинг индивидуал ҳолда битирув малакавий иши, курс лойиҳаларини бажаришда маслаҳатчи ролини бажаради	
<b>дзюку</b>	Японияда тўлдирувчи таълим	
<b>хагвон</b>	Жанубий Кореяда чет тилини ўрганиш бўйича тўлдирувчи таълим	
<b>фасилитатор</b>	гуруҳлардаги фаолият натижасини самарали баҳолайди, муаммонинг илмий ечимини топишга йўналтиради	
<b>Вебинар дарс</b>	семинар ёки конференция Интернет орқали бир вақтда ҳозир бўлган тингловчилар билан аудио видео билан жонли олиб борилади	
<b>Blended learning (аралаш ўқитиш)</b>	кундузги анъанавий таълим ва масофавий таълимнинг унсурлари комбинацияси	

**Изоҳ:** Иккинчи устунчага қатнашчилар томонидан фикр билдирилади.

### III. НАЗАРИЙ МАТЕРИАЛЛАР

#### 1-Маъзу. TILSHUNOSLIK FANIDA LINGVISTIK METODLAR MASALASI

##### REJA:

1. Metod, metodika, metodologiya, yondashuv tushunchalari.
2. Tillarni o`qitish tamoyillari.
3. Til ta`limida kompetensiyaviy yondashuv.

**Tayanch so`z va iboralar:** yondashuv, prinsip, metod, metodika, metodologiya, tillarni o`qitish tamoyillari, pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya, o`qitish texnologiyasi, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, tayanch kompetensiya, xususiy kompetensiya, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, sotsiokulturologik kompetensiya, pragmatik kompetensiya, metakompetensiya.

##### **Metod, metodika, metodologiya, yondashuv tushunchalari**

Atrofdagi tabiatni, inson hayot kechirayotgan jamiyatni va insonning o`zini, uning faoliyat ko`rinishlarini ilmiy tahlil etish va bilish intellektual faoliyatning eng oliy shaklidir. Bu faoliyat oddiy bilishdan, ya`ni kundalik hayot ehtiyojlarini qondirishga yo`naltirilgan bilish istagidan, birinchi navbatda, o`z maqsadi va tizimli ravishda amalga oshirilishi bilan tubdan farq qiladi. Ikkinchidan esa, ilmiy bilish jarayonida maxsus vosita va usullarga murojaat qilinadi.

Til nafaqat insonni, balki kishilik jamiyatini ham barpo etgan, uning taraqqiyotiga sabab bo`lgan va hozirgi kunda ham turli mamlakatlarni bir-biriga bog`lab turgan buyuk ne`mat, qudratli kuchdir. Shuning uchun tillarni o`rganish, til ta`limining eng samarali intensiv metodlarini ishlab chiqish masalalariga hamisha katta e`tibor qaratib kelingan, til o`qitish metodlari muntazam takomillashtirib borilgan.

Yondashuv, prinsip, metod tushunchalari amaliyotda ko`pincha metod va usullar tushunchalari bilan almashtirib qo`llanadi, ya`ni o`qitishning prinsipial yo`nalishini belgilash uchun ham, dars berish metodi ma`nosida ham ishlatiladi. Til ta`limida o`qitishning prinsipial yo`nalishi tamoyil yoki yondashuv, metod esa

usul, uslub tarzida talqin qilinadi. Metodist-olim R.Yo`ldoshev fikricha, metod ta`lim maqsadiga eng qisqa yo`l va qisqa vaqt ichida erishtiradigan usul yoki usullar majmuasidan iborat bo`lib, bir usuldan tashkil topganida ular tenglashadi, biroq metod usuldan keng tushunchaligicha qolaveradi<sup>1</sup>. Yondashuv metodlar tizimi bilan ish ko`radi, demak, metod yondashuvdan kichik tushuncha sanaladi. Ushbu tushunchalarni farqlashda I.L. Bim tomonidan berilgan ta`rifni ma`qullaydi: *“Metod – til o`qitishning muayyan tarixiy davrda ta`lim maqsadi va ijtimoiy shart-sharoitlariga muvofiqlashgan biror ustuvor g`oya asosida birlashgan holda shu g`oyani ro`yobga chiqarish uchun qaysi yo`nalishdan va qaysi usullar bilan borish kerakligini ko`rsatuvchi prinsiplarni joriy etishning umumlashgan modelidir.”* Bu o`rinda, bizningcha, metod va metodika terminlarining aralashtirib yuborilgan. “O`zbek tilining izohli lug`atida” ushbu tushunchalar quyidagicha izohlanadi:

“Metod (yunoncha methods – tadqiqot usuli, yo`li) 1. Tabiat va jamiyat hodisalarini bilish, tadqiqi qilish usuli. 2. Usul, uslub” sifatida;

“Metodika (yunoncha methodika) 1. Biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig`indisi. 2. O`qitish usullari haqidagi ta`limot.”



<sup>1</sup> Sodiqov A., Xolmurodov A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2014. – 115-b.



Metodik so`zi esa metod va metodikaga xos, usuliy ma`nolarini bildiradi.

Fan sohasida qo`llaniladigan bilishning vosita va amallari umumlashmasi ilmiy tadqiqotlar metodini tashkil qiladi. Tadqiqot metodi, albatta, o`rganish uchun tanlangan obyektga monand tarzda turli xil bo`lishi mumkin. Shuning bilan birgalikda, tadqiqot metodining tanlanishi tadqiqotchining borliqqa (obyektga) bo`lgan munosabati bilan ham belgilanadi. Keyingisi alohida e`tiborga loyiq, chunki ilmiy tadqiqot yoki ilmiy tafakkur metodologiyasini belgilaydi.

**Metodologiya** inson bilish faoliyatining vositalari, maqsadi va nazariy asosini aniqlab beradi. Metodologiya doirasida tadqiqotchi voqelikdagi turli hodisalarni tahlil qilish tamoyillarini tanlaydi, tadqiqot jarayonida erishilgan natijalarni o`rganish va baholash usullaridan foydalanadi. "Falsafa" qomusiy lug`atida metodologiya tushunchasi ikki yo`nalishda ta`riflanadi: 1) biror fanda tadqiqot etiladigan tadqiqot usullarining majmui; 2) ilmiy bilish va dunyoni o`zgartirish



metodi haqidagi ta`limot. N.Shermuhamedova aytganidek, “fan metodologiyasi samarali bilish faoliyatining umumiy tamoyillarinigina belgalab berishga qodir, ammo u tadqiq qilinayotgan obyektни bilishning muayyan yo`llarini belgilab bera olmaydi”. Har bir obyekt tadqiqi alohida yondashuvni, maxsus usul va vositalar majmuasidan foydalanishni talab qiladi. Shu sababli metodologiyani tahlil tamoyillari va metodlari tizimi haqidagi ta`limot sifatida ta`riflash ma`qulroq. Uning doirasida ilmiy izlanish va bilim olishning nazariy asosi, umumiy yondashuv tamoyillari belgilanadi.

Metodologiyaning muhim vazifalaridan biri bilim manbaini aniqlashdir. Ushbu masalaning yechimini falsafadan izlamoq darkor, zero, falsafiy nuqtai nazaridan har qanday bilim manbai obyektiv voqelik va uning inson ongidagi aksidir.

Metodologiya tadqiqot manbaini qanday tushunish, uni o`rganishga qanday yondashish, qaysi usullarni qo`llash, tadqiqot obyektini yuzasidan umumiy nazariy, amaliy, mantiqiy yoki tavsifiy bilimlar hosil qilish haqidagi ta`limotdir.

**Ta`lim metodi yoki usuli** o`qituvchi va o`quvchilarning ta`lim jarayonidagi aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlari bo`lib, u o`quv materialini nazariy va amaliy jihatdan o`zlashtirish yo`llarini anglatadi. O`qitish metodlari ta`lim jarayonida o`qituvchi va o`quvchi faoliyatining qanday kechishi, o`qitish jarayonini qanday tashkil etish, qay tarzda olib borish kerakligini belgilab beradi. Bugungi kun o`qituvchisi har bir mashg`ulotga kirar ekan, har doim uning oldida darsni qanday tashkil etish kerak, qaysi didaktik materialdan qay tarzda foydalanish kerak, ushbu mavzuni o`tishdan qaysi metodlardan foydalanish samarali bo`ladi degan savol turadi. Darsda ko`zda tutilgan ta`limiy-tarbiyaviy maqsadlarga erishishda o`qituvchining o`z mutaxassisligi doirasidagi chuqur bilimi, intellektual salohiyatining o`zi yetarli emas. O`qituvchi, shuningdek, o`z tajribasi, o`zgalar tajribasiga suyangan holda dars o`tish metodlari ustida ham jiddiy bosh qotirishi kerak.

Demak, o`quv faoliyati mazmunining to`laqonli yoritilishida **ta`lim shakli, metod va vositalarining** ahamiyati katta. Ular o`quvchining imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, bilim va ko`nikma va malakalarini ko`rsatib berish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi. O`z navbatida o`quvchilarning yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashining ko`lami hamda ularning faolligi samarali, ilg`or, noan`anaviy ta`lim shakli, metodi va vositalarini tanlash, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish uchun turtki bo`ladi. Bunda, albatta, o`qituvchining o`rni nihoyatda katta, chunki, u DTS, o`quv rejasi dasturi, shuningdek, darslik, qo`llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda fanning o`ziga xos jihatlari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, o`quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishdan kelib



chiqib, ta`lim metodlari va dars shakllarini o`zi tanlaydi. Bunda o`qituvchining bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi, vaziyatni baholay olishi hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqati muhim o`rin tutadi.

Demak, metodlar o`zining obyektiv va subyektiv jihatlariga bo`lib, uning obyektiv jihatlarida barcha didaktik qoidalar, qonunlar va qonuniyatlar, tamoyil va ta`riflar, shuningdek, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o`quv faoliyatining shakllariga xos bo`lgan umumiy jihatlar aks etsa, subyektiv

jihatlarga pedagog shaxsi va ta`lim oluvchilarning o`ziga xos xususiyatlari konkret shart-sharoitlarga bog`liq bo`ladi.

Aytilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, **ta`lim metodi** – o`quv jarayonining majmuaviy vazifalarini yechishga yo`naltirilgan o`qituvchi va o`quvchilarning birgalikdagi faoliyati usuli bo`lsa, **ta`lim metodikasi** esa muayyan o`quv predmetini o`qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullar tizimini tavsiflaydi.

So`nggi o`n yil davomida nutqimizda **“pedagogik texnologiya”**, **“zamonaviy pedagogik texnologiya”**, **“o`qitish texnologiyasi”** kabi tushunchalar keng qo`llanmoqda. “Ta`lim texnologiyasi” tushunchasi “ta`lim metodikasi” tushunchasiga nisbatan kengroq tushuncha bo`lib, u ta`lim maqsadiga erishish jarayonining umumiy mazmunini anglatadi. Bunda ta`lim jarayoni avvaldan loyihalashtirilgan yaxlit tizim asosida, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, aniq maqsadga erishish yo`lida muayyan metod, usul va vositalar tizimini ishlab chiqish, ulardan samarali, unumli foydalanish hamda ta`lim jarayonini yuqori darajada boshqarish ifodalanadi.

**“Texnologiya”** yunoncha so`z bo`lib, “techne” – mahorat, san`at hamda “logos” – tushuncha, ta`limot so`zlarining birikmasidan hosil bo`lgan. “Ta`lim texnologiyasi” tushunchasi esa lug`aviy jihatdan (inglizcha “an educational technology”) ta`lim (o`qitish) jarayonini yuksak mahorat, san`at darajasida tashkil etish borasida ma`lumotlar beruvchi fan (yoki ta`limot) ma`nosini anglatadi. Pedagogik texnologiya nazariyasi o`tgan asrning ikkinchi yarimdan boshlab asoslanib kelinayotgan bo`lsa-da, aynan **“pedagogik texnologiya”** tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud:

“Pedagogik texnologiya” – bu “amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi”( V.P. Bepalko);

“mazmunli umumlashma” (G.K. Selevko);

“fan va amaliyot oralig`ida muayyan tamoyillarni olg`a suruvchi metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo`llash kabi masalalarni hal etishga yo`naltirilgan mustaqil fan” (N.F. Talizina);

“pedagogik texnologiya ta`lim tizimi doirasida olib borilayotgan tadqiqot nazariyasi va amaliyotining muayyan tarmog`idir” (P.Mitchel).

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar majmuaviy uzviy bog`liqlikdagi tizim bo`lib, unda ta`lim maqsadlari asosida belgilangan ko`nikma va malakalar o`quvchilar tomonidan nazariy bilimlarni o`zlashtirishga, ularda muayyan ma`naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga yo`naltirilgan pedagogik faoliyat elementlarining ma`lum tartibga solingan to`plami sifatida aks etadi. Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o`quvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta`lim maqsadiga erishishni ta`minlashdan iborat. Bunda ta`lim maqsadlarining belgilanishi, ya`ni ta`lim *kimga va nima maqsadda?* berilishi, mazmunni tanlash va ishlab chiqish, ya`ni *nimani?* berish, ta`lim jarayonlarini *qay tarzda?* tashkil qilish, ta`lim metodi va vositalarini aniq belgilab olish, ya`ni *qanday vositalar yordamida* ta`lim berish, shuningdek, o`qituvchilar malakasi darajasi, ya`ni *kim?* ta`lim berishi, erishilgan natijalarni *qanday yo`l bilan?* baholash metodlari markaziy o`rinni egallaydi.

Pedagogik texnologiya turlarini tanlash shakllanayotgan bilim, ko`nikma va malakalar, tashkil etilayotgan darslarning shakli, qo`llanilayotgan metodlar va metodik usullarning xususiyatiga bog`liq.

### **Tillarni o`qitish tamoyillari**

Ma`lumki, til ta`limida har bir ta`lim bosqichida ma`lum bir hajmdagi **bilimlarni** o`zlashtirish ko`zda tutiladi. O`zlashtirilishi lozim bo`lgan bilimlar asosini esa o`quv dasturida ko`rsatilgan fonetik, leksik, grammatik ma`lumotlardan iborat **til materiallari** tashkil qiladi va ular davlat ta`lim standarti talablariga muvofiq holda har bir ta`lim bosqichi uchun alohida taqsimlanadi. Ta`lim jarayonida o`quvchi-talabalarda ushbu bilimlar asosida **nutqiy ko`nikmalar** hosil qildirib boriladi. Ushbu bilimlar bosqichlar o`rtasida to`g`ri taqsimlanmasa, ta`lim mazmunining uzviyligi va uzluksizligiga erishib bo`lmaydi.

Nutqiy ko`nikmalar nutq faoliyatining 4 asosiy turi: **o`qish, tinglab tushunish, gapirish va yozish** ko`nikmalari orqali yuzaga keladi va o`quvchilarning olgan bilimlarini amaliy nutqiy faoliyatda sobitqadamlik bilan

mustaqil ravishda qo`llay olish qobiliyatini – **nutqiy malakani** hosil qilishga yordam beradi. Taniqli psixolog I.A. Zimnyaya ta`rificha, “*malaka mashqlar natijasida harakatlarning yuqori mukammallikka erishuvi va nutqiy jarayonlarning avtomatlashuvidir*”.

Haqiqatan ham, so`zlashish, muloqot yuritish jarayoni fikrni leksik, grammatik va fonetik jihatdan rasmiylashtirishning eng samarali darajasini – yuqori darajada avtomatlashgan nutqiy ko`nikmalarni, ya`ni nutqiy malaka hosil qilinishini talab etadi. Nutqiy muloqotda nutqiy malakaning hosil qilinishi kommunikativ maqsadning asosini tashkil etadi, chunki aynan tinglab tushunish, gapirish, o`qish, yozish ko`nikma-malakalari orqali ikkinchi bir tilda o`zaro axborot almashish, og`zaki va yozma muloqot yurita olish malakasi vujudga keltiriladi.

Demak, nutqiy jarayon biri-biriga bog`liq bo`lgan va o`zaro ta`sir qilib turadigan quyidagi 3 omil: til birliklari va ularning o`zaro bog`lanishini o`rgatuvchi grammatik **bilimlar**, ushbu birliklar va qoidalarni amaliy qo`llash



**ko`nikmalari** hamda o`z fikrlarini yangi vaziyatda erkin ifodalash uchun o`rganilgan bilimlardan foydalana olish **malakalaridan** tashkil topadi.

Shu uch omil birgalikda amal qilgandagina nutqiy faoliyatni yuzaga keltiradi. Aynan shu omillarni bosqichma-bosqich rivojlantirib borish tilga o`rgatishning asosi hisoblanadi. Bunda ularning tizimli ravishda berilishi, til birliklarining o`zaro sintagmatik va paradigmatic aloqadorlikda, bog`liqlikda bo`lishi ayniqsa muhimdir.

Nutqiy muloqot jarayonida inson ana shu bog`liqliklarni kompleks holda, ya`ni **tinglash, o`qish** va ma`nolarini **tushunish** birligida qabul qiladi. Nutqiy faoliyatning ushbu turlari bir-biriga bog`liq holda bosqichdan-bosqichga o`zaro uzviy bog`liq holda o`zlashtirib borilishi uzviylik va uzluksizlikni ta`minlaydi.

Biroq bu o`rinda ushbu bilimlar, ko`nikma va malakalarni **kinga berish, ya`ni kimlar ta`lim subyekti ekanligi** nihoyatda muhim. Shundan kelib chiqqan holda til ta`limida **tilni ona tili sifatida o`qitish** va **chet tili sifatida o`qitish (yoki ikkinchi til sifatida o`qitish)** alohida ajratib o`rganiladi. Tilni ona tili sifatida o`qitishda til o`z egalariga, shu tilda so`zlashuvchilarga o`qitiladi, ya`ni ta`lim subyektlari shu tilda nutqqa ega bo`lgan insonlar hisoblanadi. Til o`qitishda bu juda muhim bo`lib, ta`lim mazmuniga ham, ta`lim metodlariga ta`sir qilmay qolmaydi.

Psixolog olim L.S. Vigotskiy ona tili va ikkinchi til ta`limining pedagogik-psixologik usullari bir-biriga qarama-qarshi ekanligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: *“Ona tilini o`rganish pastdan yuqoriga, xorijiy tilni egallash esa yuqoridan pastga yo`nalishida amalga oshiriladi”*. Buni quyidagicha sharhlash mumkin: pastdan yuqoriga yo`nalishida, ya`ni aniq til hodisalari tahlilidan ularni umumlashtirishga qarab boriladi, yuqoridan pastga yo`nalishida esa umumlashmalardan (qoidalardan) ularning amaliyotiga o`tiladi.

Demak, beriladigan ma`lumotlar, qoidalarning mazmuni, berilish shakli va o`rni tilning qaysi jihatdan o`rganilayotganiga ko`ra tanlanishi va shunga mos tartibda taqsimlanishi kerak bo`ladi. Albatta, til chet tili yoki ikkinchi til sifatida o`qitilganda bilimlarni lingvistik aspektidagi kabi chuqur va keng emas, balki

kommunikativ tarzda, ya`ni muayyan muloqotni tahminlaydigan leksik va grammatik minimumlar doirasida berib borilishi taqozo etiladi.

**Til ona tili sifatida o`rganilayotganda** tilning grammatik tuzilishi haqidagi ma`lumotlarni tizimli ravishda, izchillikda o`rgatish maqsadga muvofiq bo`lsa, chet tili sifatida o`rganilayotganda grammatik bilimlarni sof amaliy, ya`ni nutqiy faoliyatni rivojlantirish maqsadiga yo`naltirilgan holda berilishi kerak bo`ladi. Muayyan bir tilda erkin so`zlashish imkoniyatiga ega bo`lish uchun 2000ga yaqin so`zni bilish, yaxshi o`qish va tushunish uchun 4000-5000 atrofidagi lug`aviy birlikni egallashi lozimligi mutaxassislar tomonidan e`tirof etilgan. Ayrimlar bunday minimumni katta hajmdagi matnlarni mustaqil o`qish orqali ajratish va retseptiv idrok qilish mumkin deb hisoblasalar-da, olib borilgan maxsus tekshiruvlar bu fikrni tasdiqlamaydi. Jumladan, psixolingvist G.I. Bogin o`z tajribasida aniqlashicha, filologik yo`nalishdagi fakultetlar talabalari 100 o`quv haftasi davomida har haftada 30 sahifadan asar o`qib, matnni qariyb yod olishi mumkin. Biroq bu leksik va grammatik materialni to`liq o`zlashtirishda unchalik katta natija bermaydi, chunki o`qib chiqilgan 3000 sahifada barcha lug`aviy va grammatik birliklar uchramaydi yoki qayta takrorlanmaydi.

**Tilni chet tili yoki ikkinchi til sifatida o`qitishda** asosiy e`tibor tilning nutqqa bog`liq tomonlariga qaratilgani uchun muammoli masalalar anchagina bo`lib, bu bilan metodistlar ham, psixolog olimlar ham shug`ullanib keladilar. Psixologlarning ta`kidlashicha, o`quvchilarda ikkilamchi til malakasining hosil bo`lish yo`li birlamchi – ona tili malakasi va ko`nikmasi orqali yuz beradi. Ikkinchi bir tilda so`zlash malakasining hosil bo`lishi, avvalo, ushbu tilda fikr ifodalashga yordam beruvchi til vositalarini qo`llash ko`nikmalarini shakllantirish va nutqiy muloqot jarayonida ulardan erkin va mujassam holda foydalanish qobiliyatiga bog`liq bo`lib, bunday qobiliyat esa insonda ona tili malakalari asosiga qurilgan nutqiy ko`nikmalar asosida shakllanadi.



### *Ikkilamchi nutqiy malakaning tarkibiy qismlari*



### *ikkilamchi ijodiy malakaning hosil bo`lishi*

Ko`rinadiki, ikkinchi tilda nutqiy faoliyat malakasini hosil qilishda, avvalo, ona tilidagi birlamchi malakalar asos bo`lib xizmat qiladi. Biroq bunda kommunikativ jihatdan zarur deb hisoblangan grammatik bilimlarnigina berish taqozo etiladi va grammatik bilimlar shunga ko`ra minimumlashtirilishi kerak bo`ladi.

Tilni chet tili yoki ikkinchi til sifatida o`qitilishda yana 2 muhim jihatga e`tibor qaratish lozim: tilni **til muhiti bo`lmagan joyda o`rgatish** va tilni **til muhitida o`rgatish**.

O`zbekistonda yashovchi barcha millat vakillari o`qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo`lishlari, barcha sohalarda erkin fikr almashishlari uchun o`zbek tili ta`limi xalqaro standart talablariga javob berishi, ularning turli nutqiy vaziyatlarga mos ravishda erkin muloqotga kirisha olish kompetensiyalarini, layoqatlarini shakllantirish kerak bo`ladi. Bu borada jahonning yetakchi mamlakatlarida amal qilib kelayotgan va samarali natijalar berayotgan kompetensiyaviy yondashuvni til ta`limiga tatbiq etish borasida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda 1875-sonli “*Chet tillarni o`qitishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to`g`risi*”dagi maxsus qabul qilingan Qarori va chet tillarini o`qitish bo`yicha amalga oshirilgan islohotlar, davlat ta`lim standartlari talablarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi, chet tili o`qituvchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi ishlab chiqilgani, ta`lim

jarayonining o`quv-uslubiy adabiyotlar va zamonaviy vositalar bilan ta`minlanishi ta`lim sohasida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo`ldi.

Ta`kidlash kerakki, ushbu qaror mamlakatimizda nafaqat chet tillarni, balki umuman til ta`limini, shu jumladan, respublikamizning davlat tili bo`lmish o`zbek tilini o`qitishni ham yanada takomillashtirish (o`zbek tili fanidan DTS talablarini ham xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish va ta`limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, o`quv dasturlari mazmunini uzluksizlik va uzviylik asosida qayta ko`rib chiqish) borasida katta ishlar amalga oshirilishiga sabab o`ldi.



### Til ta`limida kompetensiyaviy yondashuv

“Kompetensiya”, “kompetentlilik” tushunchalari tilshunoslikda ilk bor XX asr o`rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo`llangan bo`lib, tilni ishlatish jarayonida “faoliyatga yo`naltirilgan bilim, ko`nikma va malakalar majmui sifatida”, ta`lim sohasida esa “kompetensiyaviy yondashuv” sifatida talqin etilgan bo`lib, ta`limda natijaviylikni ko`rsatuvchi omillar sifatida qayd etilgan. Aytish joizki,

lug`atlarda ushbu so`zlarning ma`nolari turlicha izohlanadi. Chunonchi, “O`zbek tilining izohli lug`ati”da kompetensiya so`zi quyidagicha izohlangan:

“**Kompetensiya** – (lot. competere – layoqatli, munosib bo`lmoq). 1) Muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi; vakolat. 2) Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi”.

Ruscha-o`zbekcha tarjima lug`atlarida esa bu so`z quyidagicha sharhlanadi:

“Kompetensiya – 1. Biror kishi yaxshi xabardor, omilkor bo`lgan soha; 2. *yur.* huquq (vazifa, ish) doirasi.”;

“Kompetensiya – 1. Biror kishi yaxshi xabardor bo`lgan soha yoki masala; 2. Vakolat, huquq ixtiyor; Kompetentniy, -aya, oe, -ten, -tna – yetarli ma`lumotga ega bo`lgan, puxta bilimli, yaxshi biladigan, bilimdon, xabardor, omilkor; 2) asosli, e`tiborli, mo`tabar; 3) kompetensiyaga, ya`ni huquqqa ega bo`lgan; vakolatli; Kompetentnost – chuqur bilimga egalik; chuqur bilimga asoslanganlik, asoslilik; xabardorlik, omilkorlik.”

Berilgan izohlar ta`lim sohasida kompetensiya so`zini layoqat, kompetentlikni esa layoqatlilik deb, **ta`limga kompetensiyaviy yondashuvni** egallangan bilim, ko`nikma va malakalarni o`z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo`llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo`naltirilgan ta`lim yo`nalishi, deb tushunish maqsadga muvofiqligini ko`rsatadi. Til ta`limida kompetensiyaviy yondashuv ta`lim oluvchilarning o`rganayotgan tili materiallaridan va olingan axborotlardan o`z hayotiy faoliyatida oqilona foydalana olish, shu tilda o`z fikrini og`zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash va nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo`llay olish ko`nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya`ni tilni maqsadli ravishda amaliy qo`llay olish layoqatini shakllantirishdan iborat.

**Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta`lim** – egallangan bilim, ko`nikma va malakalarni o`z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo`llay olish layoqatini shakllantirishga yo`naltirilgan ta`lim bo`lib, o`quvchilarda mustaqil fikrlash, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo`lish, tashabbuskorlik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o`z faoliyatida oqilona foydalana

olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog`lom raqobat hamda umummadaniy ko`nikmalarni hosil qiladi.

Kompetensiyalar 2 asosiy turga: tayanch va xususiy kompetensiyalarga bo`linadi. **Tayanch kompetensiyalar** insonning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirisha olish, jamiyatda o`z o`rnini egallay olish, duch keladigan muammolarning yechimini hal eta olish, eng muhimi, o`z sohasi, kasbi bo`yicha raqobatbardosh bo`la olish ko`nikma-malakalarini tarkib toptirishga qaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda, u

- 1) kommunikativ kompetensiya;
- 2) axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
- 3) shaxs sifatida o`z-o`zini rivojlantirish kompetensiyasi;
- 4) ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
- 5) umummadaniy kompetensiyalar;

6) matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo`lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Bundan tashqari, ta`limda har bir o`quv fanini o`zlashtirish jarayonida o`quvchilarda, shu fanning o`ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli **xususiy kompetensiyalar** ham shakllantiriladi. Jumladan, o`zbek tilini o`rganishda o`quvchi-talabalar **nutqiy, lingvistik, sotsiokulturologik, pragmatik kompetensiyalarni** egallashlari talab etiladi.

O`zbek tili ta`limida o`quvchi-talabalar **nutqiy, lingvistik, sotsiokulturologik, pragmatik kompetensiyalardan** iborat xususiy kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi.

**1. Nutqiy kompetensiya** til ta`limining quyidagi 4 amali bo`yicha: **tinglab tushunish bo`yicha** (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish); **gapirish bo`yicha** (monologik, dialogik og`zaki nutq turlarida o`z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish, mavzu doirasida taqdimot qila olish ko`nikmalarini rivojlantirish); **o`qish bo`yicha:** mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, hikoya, shaxsiy va elektron xatlarni)

o`qish; **yo`zish bo`yicha** (diktant, bayon, insho yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish, rasmiy ish qog`ozlarini yuritishni bilish).

**2. Lingvistik kompetensiya:** kundalik hayotda faol qo`llaniladigan ijtimoiy mavzularga oid va kasb-hunarga yo`naltirilgan lug`at boyligini oshirib borish, o`zbek tilining so`z yasalihi vositalarini bilish lug`at boyligini oshirib borishdan iborat bo`lib, bularning barchasi o`zbek tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi bo`yicha nazariy bilimlarni muayyan izchillikda egallash vositasida amalga oshiriladi.

**3. Sotsiokulturologik (ijtimoiy-madaniy) kompetensiyada** eshitilgan nutqni shu xalqning milliy xususiyatlarini bilgan va o`z ona tili va milliy an`analari bilan taqqoslagan holda muayyan nutqiy vaziyatga mos lingvistik shakl, ifoda usulida taqdim eta olish qobiliyatini shakllantirish. Ushbu layoqat o`quvchi-talabalarni o`z xalqining boy tarixi, milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini va ularni o`zida aks ettirgan boy adabiy-badiiy meros bilan yaqindan tanishish, o`zbek adabiyoti namunalarini, jahon milliy madaniyatiga hissa qo`shgan o`zbek xalqi vakillarining ijodiy merosini o`qib o`rganish orqali shakllantiriladi.

**4. Pragmatik kompetensiya** kundalik hayotda o`zbek tilidan egallagan bilim, ko`nikmalari asosida muayyan nutqiy vaziyatda mustaqil muloqotga kirisha olish qobiliyatini, o`zaro suhbatlashish, suhbatga qo`shilish, suhbatdoshining nutqini sekinlashtirishga undashga oid muomala odobi vositalarini, tushunmovchiliklar paydo bo`lganda qayta so`rash, uzr so`rash orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, tilning amaliy imkoniyatlaridan o`rinli foydalana olish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi.

Qayd etilgan kompetensiyalar ta`lim oluvchilarda shaxsiy, ma`naviy, ijtimoiy, kasbiy ko`nikma-malakalarini tarkib toptirishga va egallagan bilimlarini turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo`llashga qaratilgan layoqatlarini shakllantirishga olib keladi va nutqiy kommunikativ malakani egallash orqali ta`lim oluvchilarda **metakompetensiyalar** tarkib topishiga olib keladi. Biroq ko`zda tutilgan provard natijaga erishish uchun har bir ta`lim bosqichi bitiruvchilari uchun belgilangan

kompetensiyalarning me`yoriy darajasi talablarini bajarilishini ta`minlash kerak bo`ladi.

#### **Назорат саволлари:**

- Турли хил турдаги ўқув фаолияти интеграцияси;
- Услубий таъминот;
- Мустақил ривожланиш;
- Таълим жараёнидаги талабанинг мустақиллиги;
- Ўқув ахборотини таҳлил қилиш ва тузиш кўникмаси;
- Назорат ва ўз-ўзини назорат қилиш;
- Талабанинг таълим олишдаги шахсий траекторияси.

#### **Фойдаланган адабиётлар:**

1. Копченков В. Новая профессия – фасилитатор онлайн-сообществ.//[http://community.sk.ru/press/reading/b/buildabusiness/archive/2013/03/28/novaya-professiya-\\_1320\\_-fasilitator-onlaynsoobschestv.aspx](http://community.sk.ru/press/reading/b/buildabusiness/archive/2013/03/28/novaya-professiya-_1320_-fasilitator-onlaynsoobschestv.aspx)
2. Махмутов, Ибрагимов, Чошанова. Педагогические технологии развития мышления учащихся.- Казань,1993.- 75 с.
3. Модель филолоического образования КазНМУ им. С. Д. Асфендиярова. Вып. 1. Ч. 3. -Алматы: КазНМУ

#### **Интернет ресурслар**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. [tdpu-INTRANET. Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

## **2-MA`RUZA. QIYOSIY-TARIXIY TILSHUNOSLIKNING SHAKLLANISHI VA QIYOSIY-TARIXIY METODNING YARATILISHI**

### **REJA:**

1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi.
2. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanish davrlari.
3. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asosida qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi.
4. F.Bopp, R.Rask, A.X. Vostokov, Ya.Grimm ta'limotlari.

**Tayanch soʻz va iboralar:** qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy metod, komparativizm, yosh grammatikachilar, ratsionistlar, ratsional va universal grammatikalar, mantiqiy grammatika.

### **1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi**

XVIII asrgacha til oʻzgarish hodisa deb hisoblangan. Aynan mana shu asrdan boshlab tilga bunday qarash oʻzgardi. XVIII asrning diqqatga sazovor eng katta xizmati shunda boʻldiki, u tilga oʻzgaruvchan, rivojlanuvchan hodisa sifatida baho berdi. Aniqrogʻi, ushbu davrda Sharl de Bros, Jan Jak Russo, Monbodd, Adam Smit, Pristli, Gerder va boshqalar tillarning tarixiy taraqqiyoti gʻoyasini qoʻllab-quvvatlardilar va uni rivojlantirdilar.

XIX asrning birinchi choragida til sohasidagi kuzatishlar va ular asosida kelib chiqqan jiddiy fikrlar faktlarni yigʻish, ularga eʼtibor berish gʻoyasidan qiyosiy-tarixiy gʻoyaga – nuqtai nazarga oʻtishga oʻtildi. Tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash gʻoyasi ushbu nuqtai nazarlarning oʻzgarishiga sabab boʻldi. Aslida tillar oʻrtasida oʻxshashlik borligi XIX asrdan ancha oldin ayrim aniqlangan boʻlsa-da, ammo uzoq vaqtlar davomida ushbu oʻxshashlikning sabablari ilmiy jihatdan yoritib berilmagan, asoslab berilmagan edi. XIX asrning boshlariga kelib, turli mamlakatlardagi ayrim tilshunoslar deyarli bir vaqtda bir qancha tillar oʻrtasidagi sistematik oʻxshashlikni faqatgina ularning qarindoshligi bilan – bir umumiy qadimiy bobotildan kelib chiqqanligi bilan, keyinchalik esa har biri alohida, mustaqil rivojlanganligi bilangina tushuntirish mumkin, degan xulosaga kelishdi.

Shuningdek, tillar o`rtasida o`xshashlik mavjudligi g`oyasining maydonga kelishida fanga tarixiy yondashishning yuzaga kelishi til hodisalari tarixiylik nuqtai nazaridan izohlana boshlanganligi, tilshunoslikka romantizm g`oyalarining ta`siri, ya`ni jonli tillarning o`tmishini o`rganishga undash g`oyasi hamda sanskrit (qadimgi hind adabiy tili) bilan yaqindan tanishish kabilar tillar o`rtasidagi o`xshashlikni ularning qarindoshligiga ko`ra izohlash mumkinligiga olib keldi.

Tillarni tarixiy jihatdan o`rganish va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishida Bengaliyada xizmat qilgan ingliz sharqshunosi va huquqshunosi **Vilyam Jonsning** (1746-1794) sanskrit tili bilan yunon va lotin tillari o`rtasida yaqinlik borligi haqidagi fikrlari, nemis olimi **Fridrix Shlegel** (1772-1829) tomonidan yaratilgan **“Hindlarning tili va donoligi”** asari zamin bo`lib xizmat qildi. Ushbu asarda sanskrit tilining nafaqat lug`at tarkibi jihatidan, balki grammatik tuzilishi jihatidan ham lotin, grek, german va fors tillariga qarindosh ekanligi, ularning bir umumiy asosdan kelib chiqqanligi qayd etilgan edi. Bu juda ko`p jonli va qadimiy tillarni tarixiy va qiyosiy jihatdan o`rganilishiga va qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishiga, ayni paytda tilshunoslik fanining ham tarixiy, ham ilmiy-tarixiy nuqtai nazardan mustahkam asosga ega bo`lishiga olib keldi<sup>2</sup>.

Demak, tillarni qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq qilish, ularga tarixiylik nuqtai nazardan yondashish kabilar komparativistika, ya`ni qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning maydonga kelishiga, tilshunoslikning alohida, mustaqil fan sifatida qat`iy tan olinishiga zamin yaratdi. Ushbu jarayonda qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo`lib, qiyoslash tillarni o`rganishda usul, vosita sifatida, tillarga tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish esa tadqiqotning prinsipi (bosh g`oyasi, maqsadi) sifatida namoyon bo`ldi.

Ta`kidlash kerakki, qiyosiy-tarixiy metodning ochilishigina tilshunoslikning fan sifatida tan olinishiga, boshqa fanlar qatoridan mustahkam o`rin egallashiga olib keldi, chunki mana shu metodgina til haqidagi fanga chinakam, haqiqiy ilmiylik g`oyasini berdi, ilmiylik ruhini kiritdi. Qiyosiy-tarixiy metodning

---

<sup>2</sup> Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2007. – 51-b.



yaratilishi bilan tilshunoslik ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy jihatdan mustahkam asosga ega bo`ldi.

Qiyosiy-tarixiy metod ilmiy-tekshirish usullarining muayyan sistemasi bo`lib, o`z oldiga qarindosh tillarni qiyosiy o`rganish orqali, u yoki bu tilning tarixini, undagi o`zgarishlarni, lisoniy hodisalarning mohiyatini, uning taraqqiyotidagi qonuniyatlarni ko`rsatib berish, tushuntirib berish vazifasini o`rtaga qo`yadi.

## **2.Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanish davrlari**

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning shakllanish davri va qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishida Mahmud Koshg`ariy, Vilyam Djons, Fridrix Shlegel kabi olimlarning xizmatlarini ham inkor qilib bo`lmaydi. Ular qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishiga juda yaqinlashishdi, aytish mumkinki, mustahkam zamin yaratib berishdi. Ammo qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi asosan Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm, Aleksandr Vostokov kabi olimlarning izlanishlari, xulosalari nihoyatda katta bo`ldi. Ular ijodkor (novator) tilshunoslar sifatida maydonga chiqdilar va komparativistikaning yuzaga kelishiga sabab bo`ldilar. Buning boshlanish nuqtasi, qayd etilganidek, qadimgi hind tili – sanskrit bilan tanishish va Yevropa tillarini ushbu til bilan qiyosiy o`rganishdan boshlanib, keyinchalik tilshunoslikda turli ta`limotlarning yuzaga kelishiga olib keldi.

Umuman, XIX asr tilshunoslikda muhim o`zgarishlar, burilishlar yuz bergan hamda tilga yangicha yondashishga turtki bergan, tilshunoslik fanining mustaqil fan sifatida e`tirof etilishiga olib kelgan davr hisoblanadi. Ushbu davr tarixiy jihatdan to`rt davrni o`z ichiga oladi:

1. Qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishidan to yosh grammatikachilargacha bo`lgan davr (XIX asrning birinchi choragi – 1870 y.).
2. Yosh grammatikachilar davri (1870-1890 yy.).
3. Yosh grammatikachilar davridan to F de Sossyurning “Umumiy tilshunoslik kursi” asari va xet yozma yodgorliklarini o`qib, ma`nosini ochib berishgacha bo`lgan davr (XIX asrning oxiri va XX asrning ikki o`n yilligi).
4. F. de Sossyur g`oyalaridan bizning davrimizgacha bo`lgan davr.

**Birinchi davrning o'zi** 2 bosqichdan iborat bo'lib, 1-bosqichda qiyosiy-tarixiy metod yaratilgan bo'lsa, 2-bosqichda umumiy tilshunoslik faniga asos solindi. Ushbu davr qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi, ochilishi va umumiy tilshunoslik fanining asoslanishi bilan xarakterlanadi. XIX asrning ikkinchi o'n yilligining o'rtalaridan to'rtinchi o'n yillikning oxirlarigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

XVII asr tilshunoslari ratsionistlarning “aql inson faoliyatida yetakchi rol o'ynaydi”, degan fikrini olib, uni tilga tadbiq qilganlar, ya'ni aqlga, mantiqqa aloqador bo'lgan qonuniyatlarni tilga nisbatan qo'llaganlar. Shuning uchun Por-Royal tadqiqotchilari tadqiqot ishlarini fransuz tilini tavsiflashdan boshlagan bo'lsalar ham, o'z fikrlarini dalillashda grek, lotin, hatto qadimgi yahudiy tili dalillariga ham murojaat qilganlar. XVII-XVIII asrlar davomida “ratsional” va “universal” grammatikalarning bir necha variantlari yaratilgan bo'lib, ular falsafiy, mantiqiy grammatika deb ham yuritilgan. Ularning fikricha, gap mantig'ida universal grammatikaning falsafiy asosi bo'lgan ratsionalizm mavjud (ratsionalizm – aql).

### **3.Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asosida qiyosiy-tarixiy metodning yaratilishi**

Qiyosiy-tarixiy metod, komparativizm (tilshunoslikda) — til oilalari va guruhlarini, shuningdek, ayrim olingan tillarni tarixiy-genetik o'rganish usullari va tartiblari majmui; qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tillar rivojlanishining tarixiy qonuniyatlarini belgilash uchun qo'llanadi. Ushbu metod til tarixini bilishning eng muhim vositasidir. Qiyosiy-tarixiy metod yordamida genetik jihatdan o'zaro yaqin tillarning diaxronik tadrijiy rivojlanishi ularning kelib chiqish manbai bir ekanligini isbot qilish asosida o'rganiladi.

Qiyosiy-tarixiy metodning asosiy maqsadi jahondagi qarindosh tillar ichidagi ayrim oila va guruhlarining bobo til holatidagi qolipi (qiyofasi)ni, ularning keyingi davrlardagi rivojlanishi va mustaqil tillarga ajralishi jarayonini qayta tiklash (aslidagiday “tiriltirish”), shuningdek, u yoki bu genetik birlikka mansub tillarning qiyosiy-tarixiy tavsiflari (grammatikalari va lug'atlari)ni tuzishdan iborat. Shuni

ham aytish kerakki, qiyosiy-tarixiy metodning dastlabki belgilari Sharq filologiyasida — M.Koshg'ariy, M.Zamaxshariy, A.Navoiy va boshqalarlarning asarlarida kuzatiladi.

Metodning asosiy usullari quyidagilar: lisoniy ma'lumotlarning genetik mansubligini aniqlash, qiyoslanayotgan tillarning turli sathlaridagi o'xshashliklar va noo'xshashliklar tizimini belgilash, dastlabki bobo til shakllarini modellashtirish, lisoniy hodisalar va holatlarning xronologik va mintaqaviy tarqalish chegarasini belgilash va shu asosda amalga oshiriladigan tillarning genealogik tasnifi. Qiyoslash lisoniy tadqiqotning universal usuli bo'lish bilan birga qiyosiy-tarixiy metodda ham asosiy, ustuvor usul hisoblanadi. Ushbu metodning eng muhim belgisi tilning barcha sathlaridagi o'xshashliklarni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladigan konstruksiya (qayta tiklash) tartibi (usuli)dir. Qiyosiy rekonstruksiya (har xil tillardagi muayyan hodisalarni qiyoslash asosida bo'ladigan) va ichki rekonstruksiya (bir til doirasidagi turli davrlarga mansub lisoniy hodisalarni taqqoslash bilan bo'ladigan) o'zaro farqlanadi.

Qarindosh tillar tizimining tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini belgilashda qiyosiy-tarixiy metod fonetik-fonologik va morfologik sathlarda eng yuqori samaralarga erishadi. Bunda qiyoslash asosini tanlab olish muhim rol o'ynaydi. Odatda, bunday asos eng qadimiy yozuv an'anasiga ega bo'lgan til hisoblanadi. Hind-Yevropashunoslikda bunday rolni uzoq yillar qadimiy hind adabiy tili — sanskrit o'ynagan. Zero, qiyosiy-tarixiy metod ham sanskritda yozilgan matnlar tilini Yevropa tillariga qiyoslash va ular orasida o'xshashlik borligini aniqlash natijasida XIX asrning boshlarida maydonga kelgan (hozirgi bir qator tadqiqotlarda sanskrit o'rnini xett-luviy tillari egallagan). Lisoniy tadqiqotlarning zamonaviy qiyosiy-tarixiy metodikasi tipologik, kvantativ (miqdoriy), ehtimollik, filologik va modellashtirish kabi metodlarning usullaridan ham keng foydalanadi. Tillarni tarixiy o'rganishning lingvogeografik yoki areal usullari qiyosiy-tarixiy metodning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular bobo til davridagi umumiyliklarning dialektal bo'linish manzarasini qayta tiklashga va tillararo areal aloqalarni aniqlashga

xizmat qiladi. Qadimiy yozma yodgorliklari bo‘lmagan til guruhlarini yoki oilalarida esa qiyosiy-tarixiy metod hozirgi tillar va lahjalarning ma’lumotlariga tayanadi.

#### **4. F.Bopp, R.Rask, A.X. Vostokov, Ya. Grimm ta’limotlari Frans Bopp**

Frans Bopp (1781-1867) buyuk nemis tilshunosi – sanskrit mutaxassisi, Berlin universiteti professori. U 1816-yilda “Sanskrit tilining tuslanish sistemasi va uni grek, lotin, fors va german tillaridagi tuslanish sistemasiga qiyoslash” asarini yozdi.

F.Bopp qayd etilgan tillarda mavjud grammatik shakllarni – tuslanish formalarini qiyoslash asosida ushbu tillar o`rtasidagi umumiylikni, o`xshashlikni ochib berdi. U qiyoslash metodi bilan qiyoslanayotgan tillarning dastlabki holatini, ko`rinishini tiklash mumkin, degan fikrni ilgari surdi. Shunga ko`ra 1816-yil to`liq ma`noda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning tug`ilish-yaratilish yili deb e`tirof etiladi.

Yuqorida aytilganidek, ko`pgina olimlar V.Djons, Fr.Shlegel kabilar hind-Yevropa tillari bir bobotildan kelib chiqqan, qarindosh tillar oilasini tashkil qiladi, degan fikrni aytishgan. F.Boppning xizmati shundaki, u qarindosh tillarning materiallari asosida sistemaga asoslangan, sistema xarakteridagi umumiy nazariyani qurib berdi. U fe`llarning qo`shimchalarini qiyoslab, hayratlanarli darajaga keldi. Ya`ni, ma`lum bo`ldiki, hind-Yevropa tillarida nafaqat alohida o`xshash hodisalar mavjud, balki ushbu tillarda o`zaro o`xshashlikning, o`zaro muvofiqlikning butun bir sistemasi – grammatik sistemalarning umumiyliigi, o`xshashligi mavjudligi aniqlandi. F.Bopp uchun tillar o`rtasidagi o`zaro muvofiqlik faqat vosita edi, xolos. Maqsad esa boshqa, ya`ni qiyoslanayotgan tillardagi grammatik shakllarning eng qadimiy, dastlabki ko`rinishini-shaklini ochib berish jarayonida bir tilga xos hodisani boshqa til faktlari yordamida yoritish, tushuntirish edi. Anig`i muayyan tilga oid shakllarni (so`z formalarini) boshqa tildagi shakllar (so`z formalari) orqali tushuntirish, izohlash edi. Ushbu nuqtayi nazar F.Bopp tadqiqotlarining yangiligidir. U shu bilan qiyosiy-tarixiy metodning asosini yaratdi.

F.Bopp 1833-1852-yillarda uch tomдан iborat bo`lgan “Sanskrit, zend, arman, grek, lotin, litva, eski slavyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi”

nomli asosiy asarini e`lon qildi. Bu asarda sanskrit tiliga asoslangan holda ayrim grammatik formalarning taraqqiyotini va ularning dastlabki manbalarini aniqlash mumkin, degan fikrni ilgari surdi.

### **Rasmus Rask**

F.Bopp bilan deyarli bir vaqtda, ammo unga mutlaqo bog`liq bo`lmagan holda hind-Yevropa tillarining qiyosiy-tarixiy tadqiqi bilan daniyalik buyuk tilshunos, professor Rasmus Xristian Rask ham shug`ullandi.

R.Rask 1811-yilda “Island tili bo`yicha qo`llanma” nomli birinchi ishini e`lon qildi. Ushbu tadqiqotidayoq F.Boppdan ham oldin grammatik ko`rsatkichlarni, ayniqsa, qo`shimchalarni qiyoslashning muhimligini aytib o`tdi. Ayni vaqtda u, F.Bopp g`oyalarini to`ldirgan holda, leksik qiyoslashga ham katta ahamiyat berdi va bu jarayonda dastavval eng zaruriy tushunchalar, hodisalar va predmetlar bilan bog`langan leksikani hisobga olinishini to`g`ri ta`kidladi.

1818-yilda R.Raskning “Qadimgi shimol tili sohasidagi tadqiqot yoki island tilining kelib chiqishi” nomli asosiy asari e`lon qilindi. U tadqiqotda german, litva, slavyan, lotin va grek tillarining qarindoshligini isbotlab berdi.

Ushbu asarning 2-qismi “Frakiy tili haqida” nomi bilan 1822-yilda nashrdan chiqdi. Ishda island tilining o`rnini belgilagan holda uning got tillari guruhiga va frakiy (grek va lotin) tillariga bo`lgan munosabatini o`rganadi.

### **Yakob Grimm**

Mashhur nemis tilshunosi Yakob Grimm (1785-1863) qiyosiy-tarixiy metod yordami bilan german tillarini tadqiq qildi. Ya.Grimmning to`rt tomdan iborat “Nemis grammatikasi” asari tilshunoslik tarixida muhim o`rin tutadi. U ushbu salmoqli asarida nemis tili tarixiy grammatikasini boshqa barcha german tillari bilan qiyoslagan holda beradi.

Asar 1-tomining birinchi nashri 1819-yilda, mazkur tomning butunlay, tubdan o`zgargan ikkinchi nashri 1822-yilda chop etiladi. Ayni tomdan german tillarining tarixiy fonetikasi hamda german tillaridagi undoshlarning siljishi, “ko`chish” qonuni o`rin olgan. Ya`ni Ya.Grimm (R.Rask, Ya.Bredsdorflar kabi) undoshlarning siljishini isbotlab beradi. Masalan, hind-Yevropa tillarining nafas

tovushlari (yoki nafas bilan aytiladigan tovushlar) yoki portlovchi undoshlar *bh*, *dh*, *gh* – german tillaridagi *b*, *d*, *g* tovushlariga o`zgargan-siljigan, ko`chgan yoki hind-Yevropa tillariga oid *b*, *d*, *g* – german tillarida *r*, *t*, *k* ga; hind-Yevropacha *r*, *t*, *k* – germancha *f*, *th*, *h* ga siljigan, ko`chgan, o`tgan.

### **Aleksandr Xristoforovich Vostokov**

Taniqli rus tilshunos olimi, akademik A.Vostokov (1781-1864) tug`ma soqov bo`lib, Sankt-Peterburgdagi Rumyansev muzeyi kutubxonasiga boshchilik qilgan.

A.Vostokov slavyan tili materiallari asosida tadqiqot ishlarini olib boradi. U, aytilganidek, qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri hisoblanadi. Olim **“Slavyan tili haqida mulohazalar”** (1820), **“Rus grammatikasi”** (1831), **“Viloyat buyuk rus tili tajribasi”** (1852) **“Cherkov slavyan tili lug`ati”** (1858-1861) kabi qator e`tiborga loyiq ishlarni yaratdi.

A.Vostokov 1842-yilda **“Rumyansev muzeyidagi rus va slavyan qo`lyozmalarining tasviri”** nomli ko`p yillik mehnatining natijasini e`lon qiladi. Ushbu tadqiqotida eski slavyan tilining shahobchalari bo`lgan bolgar, serb, rus va janubiy rus (ukrain) tillarini izchillik bilan farqlaydi. Bu esa amaliyotda eski slavyan tilining taraqqiyoti va undagi o`zgarishlarni davrlashtirishga, ya`ni qadimgi (IX-XIV), o`rta (XV-XVI) va yangi davrlarga bo`lishga imkon beradi.

A.Vostokov slavyan tillariga tarixiylik nuqtai nazardan yondashishni ilk bor boshlab bergan olimdir. U tarixiy prinsipga amal qilgan holda eski slavyan tilidagi burun unllilarini aniqlaydi, ayrim harflarning talaffuzini belgilaydi, so`z turkumlarining (masalan, sifat, ravishdoshlarning) paydo bo`lish vaqti bilan bog`liq ayrim fikrlarni bayon qiladi.

## **IV. АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАР МАТЕРИАЛЛАРИ**

### **1-амалий машғулот:**

#### **UMUMIY TILSHUNOSLIK FANINING ASOSCHISI VILGELM FON GUMBOLTNING TIL NAZARIYASI**

##### **XIX asrda qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi**

XVIII asrgacha til o`zgarmas hodisa deb hisoblangan. Aynan mana shu asrdan boshlab tilga bunday qarash o`zgardi. XVIII asrning diqqatga sazovor eng katta xizmati shunda bo`ldiki, u tilga o`zgaruvchan, rivojlanuvchan hodisa sifatida baho berdi. Aniqrog`i, ushbu davrda Sharl de Bros, Jan Jak Russo, Monboddo, Adam Smit, Pristli, Gerder va boshqalar tillarning tarixiy taraqqiyoti g`oyasini qo`llab-quvvatlardilar va uni rivojlantirdilar.

XIX asrning birinchi choragida til sohasidagi kuzatishlar va ular asosida kelib chiqqan jiddiy fikrlar faktlarni yig`ish, ularga e`tibor berish g`oyasidan qiyosiy-tarixiy g`oyaga-nuqtai nazarga o`tishga o`tildi. Tilshunoslikka alohida fan sifatida qarash g`oyasi ushbu nuqtai nazarlarning o`zgarishiga sabab bo`ldi. Aslida tillar o`rtasida o`xshashlik borligi XIX asrdan ancha oldin ayrim aniqlangan bo`lsa-da, ammo uzoq vaqtlar davomida ushbu o`xshashlikning sabablari ilmiy jihatdan yoritib berilmagan, asoslab berilmagan edi. XIX asrning boshlariga kelib, turli mamlakatlardagi ayrim tilshunoslar deyarli bir vaqtda bir qancha tillar o`rtasidagi sistematik o`xshashlikni faqatgina ularning qarindoshligi bilan – bir umumiy qadimiy bobotildan kelib chiqqanligi bilan, keyinchalik esa har biri alohida, mustaqil rivojlanganligi bilangina tushuntirish mumkin, degan xulosaga kelishdi.

Shuningdek, tillar o`rtasida o`xshashlik mavjudligi g`oyasining maydonga kelishida fanga tarixiy yondashishning yuzaga kelishi til hodisalari tarixiylik nuqtai nazaridan izohlana boshlanganligi, tilshunoslikka romantizm g`oyalarining ta`siri, ya`ni jonli tillarning o`tmishini o`rganishga undash g`oyasi hamda sanskrit (qadimgi hind adabiy tili) bilan yaqindan tanishish kabilar tillar o`rtasidagi o`xshashlikni ularning qarindoshligiga ko`ra izohlash mumkinligiga olib keldi.

## **2.Vilgelm fon Gumboldtning falsafiy-lisoniy ta'limoti**

Germaniyaning eng buyuk olimlaridan biri bo'lgan Vilgelm fon Gumboldt (1767-1835) har tomonlama bilim sohibi edi. U tilshunoslik, adabiyot nazariyasi, falsafa, davlat huquqi, siyosat va diplomatik faoliyat bilan shug'ullanadi, Berlin universitetining asoschisi hamda davlat arbobi hisoblanadi.

V.Gumboldtning tilga oid bilimi nihoyatda keng bo'lib, ulkan olim nafaqat hind-Yevropa tillarini bilar, balki dunyoning boshqa tillari – bask tilidan tortib, Amerikaning kichik Polineziya va mahalliy aholisining (hindular) tillari haqida ham chuqur bilimga, ma'lumotga ega edi.

V.Gumboldt asarlari, g'oyalari, konsepsiyalari bilan umumiy nazariy tilshunoslikka asos soldi. Buyuk olim tilshunoslikning, idealistik ruhda bo'lsa-da, qator eng muhim va murakkab muammolarini hal qilib berdi, ta'limotlar yaratdi. Shu tufayli u jahon tilshunosligining keyingi taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

Qiyosiy-tarixiy metodning asoschilaridan biri bo'lgan F.Bopp uni hurmat bilan tilga olsa, G.Shteyntal, A.Shleyxer, K.Fosler, A.Pott, G.Kursius, A.Potebnya, B. de Kurtene kabi taniqli va mashhur tilshunoslar o'zlarini uning shogirdi deb hisoblaganlar.

Agar F.Bopp umumiy, nazariy g'oyalardan, qarashlardan chetlashib, asosan, faktlar yig'ish, ularni qiyoslash, ular orasidagi munosabatlarni, bog'liqliklarni aniqlash bilan shug'ullangan bo'lsa, V.Gumboldt nazariy, falsafiy g'oyalar bilan, tilning ilmiy nazariyasini yaratish bilan mashg'ul bo'ldi. Aniqrog'i, V.Gumboldtning tilshunoslikdagi ahamiyatini, o'rnini I.Kant va Gegellarning jahon falsafasi taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin.

V.Gumboldtning umumiy tilshunosligini til falsafasi deb aytish mumkinki, bu falsafa eng oliy lisoniy umumlashmalarni va uzoq davrlarda ham tilshunoslik rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan xulosalarni qamrab oladi.

V.Gumboldt til falsafasini tiklab, uning obro'-e'tiborini ko'tardi va ayni falsafaga butunlay yangi yo'nalish berdiki, bu yo'nalish qiyosiy-tarixiy metod bilan zich bog'langan holda, uning asosida yuzaga keldi. Aniqrog'i,



V.Gumboldtga boʻlgan nazariyalar boʻsh, mustahkam asosga ega boʻlmagan, shunchaki, yuzaki nazariyalar edi. V.Gumboldt esa tilning ilmiy nazariyasini, til falsafasini til hodisalariga qiyosiy-tarixiy metodni qoʻllash asosida qurdi, yaratdi. Natijada uning taʼlimoti, lisoniy qarashlari tilshunoslik fanining taraqqiyotiga uzoq yillar davomida samarali xizmat qildi.

V.Gumboldt 1820-yilda Berlin akademiyasida **“Tillar taraqqiyotining turli davrlarida ularni qiyosiy-tarixiy oʻrganish haqida”** degan mavzuda maʼruza qiladi. Ushbu mavzudagi maʼruza uning tilga oid dastlabki tadqiqoti boʻlib, muallif unda til haqida alohida, mustaqil fan yaratish zarurligi gʻoyasini oʻrtaga tashlaydi va uni asoslab beradi.

Shuningdek, olim maʼruzasida qarindosh va qarindosh boʻlmagan tillarning tipologik-qiyosiy grammatikasini yaratish tarafdori boʻlib chiqadi. U oʻzigacha boʻlgan, yaʼni har bir tilning oʻziga xosligini, mustaqilligini tan olmaydigan, barcha dunyo tillarini tayyor mantiqiy jadvallarga majburan kiritishga intiluvchi deduktiv umumiy grammatikani – Por-Royal grammatikasini inkor qiladi. V.Gumboldt turli tillardagi aynan bir tushunchani – fikrni ifoda etishning, yetkazishning turlicha usullarini aniqlashga intiladi.

V.Gumboldt hayotining oxirgi yillarida oʻzining eng muhim uch tomli **“Yava orolidagi kavi tili haqida”** nomli salmoqli asari ustida ish olib boradi. Bu asar uning vafotidan soʻng akasi A.Gumboldt tomonidan 1836-1840-yillarda nashr qilindi.

V.Gumboldtning qayd etilgan tadqiqotlarining bevosita nazariya bilan bogʻliq kirish qismi nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Ishning kirish qismi **“Inson tili tuzilishining har xilligi va uning inson naslining maʼnaviy taraqqiyotiga taʼsiri”** deb nomlanib, turli tillarga tarjima qilindi. 1859-yilda rus tiliga oʻgirildi.

V.Gumboldt aynan mana shu asarida, ayniqsa, uning kirish qismida oʻzining tilga boʻlgan nazariy-falsafiy qarashlarini mukammal bayon etadi.

U tadqiqotlarida tilga aloqa vositasi sifatida, predmetlarni anglatish vazifasini bajaruvchi sifatida baho berdi. Ayni vaqtda olim tilning murakkab o`zaro qarama-qarshi xususiyatlardan iborat ko`p jihatli hodisa ekanligini qayd etadi.

### **Vilgelm fon Gumboldtning til antinomiya**

V.Gumboldt tilni mukammal o`rganishda, unga xos belgi-xususiyatlarni, boshqa hodisalar bilan aloqasini, o`ziga xosligini aniqlash va ochishda antinomiya metodini, ya`ni o`zaro zid, qarama-qarshi qo`yish usulini qo`llaydi. U ushbu usul orqali tilga xos xususiyatlarni, uning eng muhim jihatlarini birma-bir bayon etadi. Shuningdek, til nazariyasi haqidagi mukammal ta`limotlarni, g`oyalarni yaratadiki, bu ta`limot va g`oyalar nazariy tilshunoslikning taraqqiyotida yangidan yangi qarashlarni ochishda xizmat qildi. Til va tilga yondosh hodisalarning, til bilan bevosita aloqador, bog`liq jarayonlarning o`zaro dialektik munosabatda ekanligi ma`lum bo`ldi.

Xullas, V.Gumboldtning tilni o`rganish jarayonida belgilagan, qayd etgan antinomiya – til hodisalariga dialektik zidlik asosida yondashishi jahon tilshunosligi lisoniy tafakkur taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega bo`ldi.

V.Gumboldtning til antinomiya (o`zaro zidligi va birligi) quyidagilarda namoyon bo`ladi:

**1. Ijtimoiylik (sotsiallik) va alohidalik (individuallik) antinomiya.** Til bir vaqtning o`zida ham ijtimoiy, sotsial, ham alohida, individual hodisa. Til bir vaqtning o`zida ham yakka, alohida shaxsga, ham ko`p shaxsga, umumga tegishli. Tilning ijtimoiyligi jamiyat bilan, shaxslar bilan – xalq mahsuli sifatida belgilansa, tilning alohidaligi bir shaxs bilan, yakka individ bilan – ayrim shaxs mahsuli sifatida belgilanadi. Alohida shaxslar o`zlarigacha bo`lgan avlodlar, xalqlar tomonidan yaratilgan lisoniy mahsulotdan, “hosil”dan foydalanadi.

Demak, yuqorida aytilganlardan tildagi umumiylik va xususiylik dialektikasi, antinomiya namoyon bo`ladi.

**2. Til va tafakkur antinomiya.** Til tafakkursiz, tafakkur esa tilsiz mavjud emas. Biri ikkinchisini taqozo qiladi, talab qiladi. Inson hayotida, insonning lisoniy va aqliy faoliyatida til va tafakkur alohida, yakka holda mavjud emas, ular

birgalikda, o`zaro bog`liqlikda “yashaydi”, insonga xizmat qiladi. Ayni vaqtda ularning har biri o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Demak, bundan til va tafakkurning dialektik munosabati – o`zaro ajralmasligi, bog`liqligi va shu bilan birga ichki zidligi, qarama-qarshiligi g`oyasi kelib chiqadi. Tilning (tovushning) moddiyligi, tafakkurning esa psixik hodisaligi ma`lum bo`ladi.

Til va tafakkurning dialektik birligi, ajralmasligi birining ikkinchisiz mavjud emasligida, biri, tabiiy ravishda, ikkinchisini talab qilishida, biri ikkinchisi orqali namoyon bo`lishida; ularning dialektik zidligi, ichki qarama-qarshiligi esa tilning moddiy, “tashqi” hodisaligida, tafakkurning esa ruhiy, “ichki” hodisaligida ko`rinadi. Ya`ni til ham, tafakkur ham muayyan bir butunlikning o`zaro ajralmas va ayni vaqtda o`zaro zid, qarama-qarshi ikki tomonidir.

**3. Til va nutq antinomiyasi.** Til muayyan sistemadir, “organik butunlikdir”. Shuningdek, u nutqiy faoliyatning alohida aktidir (harakatidir). Boshqacha aytganda, til nutqiy faoliyatning alohida aktlar (harakatlar) ko`rinishidagi voqe bo`lishidir. Til ayrim nutq aktidan farq qiladi va ayni vaqtda u nutq aktida, jonli nutqda mavjud bo`ladi, yashaydi.

Til – faoliyat, nutq – faoliyat mahsuli, tilning voqelanishi, namoyon bo`lishidir. Demak, til faoliyati til va nutqdan tashkil topadi. Til faoliyatida til va nutq ajratiladi, farqlanadi.

V.Gumboldtning til va nutq antinomiyasi, ularning farqlanishi, til va nutqning dialektik munosabatda olinishi tilshunoslik taraqqiyotiga qo`shilgan juda katta hissa bo`ldi.

**4. Nutq va tushunish antinomiyasi.** Til va nutq antinomiyasiga bevosita aloqada bo`lgan ushbu dialektik bog`liqlikda, “birlikda” nutq va uni tushunish, aslida, til faoliyatining turli shakllaridir, nutqiy faoliyatning ikki tomonidir. Ya`ni so`zlar individ nutqidagina – nutq faoliyatidagina muayyan aniqlikka, ma`noga ega bo`ladi. Nutq tashqi, bevosita ta`sir qiluvchi, moddiy faoliyat bo`lsa, nutqni tushunish esa ichki, ruhiy faoliyatdir.

**5. Til holati va taraqqiyoti antinomiyasi.** Tilning statikligi (turg`unligi) va dinamikligi (harakatchanligi) antinomiyasi. Til taraqqiyotining tugallanganligi va

til taraqqiyotining to'xtovsizligi antinomiyasi. Til tugal tashkil topgan va ayni vaqtda doimiy rivojlanayotgan hodisa, jarayondir. Har bir avlod tilni tayyor holda oldingi avloddan qabul qiladi. Bu jihatdan til tayyor holdagi – tashkil topishiga ko'ra tugallangan hodisadir. Shuningdek, til doimo ijodiy, taraqqiyotdagi, yangilanishdagi, “o'sishdagi”, yangi-yangi birliklarning, shakllarning paydo bo'lishidagi “qaynayotgan” jarayondir.

**6. Tildagi obyektivlik va subyektivlik antinomiyasi.** Til obyektiv, ayni vaqtda subyektivdir.

Til o'zining haqiqiy “hayotini” insonlar orasida qo'llanishidagina topsa-da, ammo uning mavjudligi, “hayotiyli” alohida shaxslarga bog'liq emas. U jamiyatning aloqa quroli sifatida obyektiv mavjud. Til bir vaqtning o'zida insonga ham bog'liq, ham bog'liq emas. Bir tomondan inson tilni an'anaga ko'ra qabul qilsa, o'zlashtirsa – obyektiv ravishda, ikkinchi tomondan, uning o'zi doimo tilni yaratadi, yangidan “quradi”, barpo qiladi. Har gal individ nutqida til birliklari, vositalari, til “xom ashyosi” harakatga keladi, jonlanadi – subyektiv ravishda.

**7. Fikrni obyektivlashtirish va fikrni rag'batlantirish antinomiyasi.** Ushbu antinomiyada til tinglovchi fikrini obyektivlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi, yuzaga keltiruvchi kuch, sabab sifatida namoyon bo'ladi.

Til subyektda paydo bo'lgan fikrni obyektivlashtiradi, reallashtiradi, umumga etkazadi – ta'sir qiluvchi kuchga aylantiradi. Fikrni obyektivlashtirish jarayoni fikrni o'zgalarga yetkazish imkoniyatini beradi, yaratadi. Ammo, ayni vaqtda, har bir nutq, har bir fikrni ifodalash subyektivdir. Nutqni qabul qiluvchi, idrok qiluvchi shaxs – tinglovchi nutqni go'yoki qaytadan o'zida yaratadi.

V.Gumboldt asarlarida tilning so'z va grammatik qoidalardan iboratligini, til birligi bo'lgan so'zning esa tushunchani ifodalaydigan belgi, ramz ekanligini to'g'ri qayd etadi. U har bir xalqning tilida o'sha xalqning tarixi, madaniyati va, umuman, uning butun ruhiy dunyosi namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

## **Vilgelm fon Gumboldtning til shakli (formasi) haqidagi ta'limoti**

V.Gumboldt lisoniy ta'limotining eng muhim nuqtalaridan biri til shakli (formasi) haqidagi ta'limot yoki, boshqacha aytganda, tilning ichki tuzilishi haqidagi nazariyadir.

V.Gumboldt ta'limotiga ko'ra til formadir (shakldir). U til formasining bir qancha xususiyatlarga ega ekanligini aytadi. Shulardan biri til formasining nutq tovushlaridan tashkil bo'lishidir. Ya'ni nutq tovushlari tilning formasini hosil qilishidir. Yana biri til formasining sistema sifatida namoyon bo'lishidir. Ya'ni har bir til elementi, birligi boshqa elementga ko'ra mavjuddir, u bilan o'zaro bog'liqdir, aloqadordir. Shuningdek, til formasi ikki jihatning, ikki tomonning: moddiy va ruhiy, tashqi va ichki tomonlarning birligidan, bog'liqligidan iboratdir.

Tilning tashqi formasi tilning materiyasi, xom-ashyosidir, uning tovush sistemasidir. Aytilganidek, nutq tovushlari tilning shaklidir.

Nutq tovushlari muayyan ma'no ifodalovchi til birliklarini hosil qilishda qo'llanadigan, ishlatiladigan shaklidir.

Tilning ichki formasi til strukturalarining tashkil qilinish, fikrni tilda obyektivlashtirish usulidir, xalq ruhining ifodasidir. V.Gumboldt tilning ikki formasi haqidagi ta'limotida ichki formani xalqning ruhi bilan bog'laydi. Ya'ni ichki forma xalq ruhining qandayligini ko'rsatadi hamda so'z orqali ifodalanadigan ma'nodir. V.Gumboldt fikricha, xalqning tili uning ruhidir va xalq ruhi uning tilidir.

V.Gumboldtning ichki forma haqidagi ta'limotining xatosi shunda ediki, u tilning ichki formasini (shaklini) faqat milliy ruh bilan, xalq ruhi bilan va mutlaq g'oya bilan bog'laydi. Ya'ni u tillarning milliylik xususiyatini alohida tillarning konkret tarixiy taraqqiyotiga bog'liq shart-sharoitlar bilan, xalq tarixi bilan, tilni yaratuvchi, uni o'zida tashuvchi, undan foydalanuvchilar bilan bog'liq holda tushuntirmaydi. Balki tilning ichki formasini, tillarning milliylik xususiyatini mavjud bo'lmagan, yetarli darajada aniqlanmagan, o'rganilmagan ruhiy ibtidoning namoyon bo'lishi bilan tushuntiradi. Aniqrog'i, V.Gumboldt nemis faylasufi I.Kant kabi ongni, ruhni alohida mavjud bo'lgan ibtido deb biladi va uni obyektiv

mavjud boʻlgan moddiy tabiatga bogʻliq boʻlmagan hodisa deb izohlaydi. Shu taʼlimotdan kelib chiqib, u tilni ruhning butun majmuidan iborat deb taʼriflaydi va til ruhga xos boʻlgan qonunlar asosida rivojlanadi deb biladi. Uning fikricha, tilda xalqning maʼnaviy qiyofasini aks ettiradigan maʼlum bir dunyoqarash ifodalanadi. Boshqa tilni oʻrganish bilan goʻyo dunyoqarash ham oʻzgaradi. Shu fikr asosida V.Gumboldt tilning “ichki formasi” haqidagi taʼlimotini yaratadi. “Ichki forma”, uning fikricha, bir tomondan, xalqning ruhi qandayligini koʻrsatsa, ikkinchi tomondan, soʻz yasalishi, shakllanishi jarayonida ifodalanadigan maʼnodir.

V.Gumboldt nutq tovushlarini til formasi deb soʻzning nutqda qoʻllangandagi qiyofasini soʻzning grammatik formasi deb taʼriflaydi. Uning bu fikrlari hamda “ichki forma” haqidagi taʼlimoti, ayni taʼlimotning idealistik jihatlari olib tashlansa, ushbu fikrlar umum tilshunoslikda hozir ham diqqatga sazovordir. Aytish mumkinki, XIX asr tilshunoslik tafakkuri, taraqqiyoti V.Gumboldtning lisoniy nazariyalari asosida taraqqiy qildi. Uning koʻpgina lingvistik gʻoyalari XIX va XX asr tilshunosligining rivojiga jiddiy taʼsir qildi.

Xullas, F.Bopp, R.Rask, Ya.Grimm, A.Vostokovlar qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va bu tilshunoslikning ilmiy-tadqiqot usuli boʻlgan qiyosiy-tarixiy metodga asos solgan boʻlsalar, V.Gumboldt umumiy nazariy tilshunoslik faniga, uning mustaqilligiga, til falsafasiga asos soldi.

Hind-Yevropa tilshunosligining XIX va XX asrning boshlaridagi taraqqiyot davrida Vilgelm Gumboldt gʻoyalarining taʼsiri natijasida umum tilshunoslikda muayyan taʼlimotlar, yoʻnalishlar maydonga keldi. Bu taʼlimotlar jahon tilshunosligida naturalizm (A.Shleyxer taʼlimoti) va psixologizm (G.Shteyntal taʼlimoti) va boshqa nomlar ostida namoyon boʻldi.

### **1. Savol va topshiriqlar:**

1. Jahon tajribasida qoʻllanadigan til taʼlimi tamoyillari haqida maʼlumot bering.
2. Keyingi yillarda chet tillarini oʻqitishda qanday zamonaviy yondashuvlar joriy qilindi?
3. “Kompetensiya”, “kompetentlik”, “kompetensiyaviy yondashuv” atamalarining maʼnolarini izohlang.
4. Kompetensiyalarning turlari va meʼyoriy darajasi talablari haqida maʼlumot bering.

5. Til ta'limining xalqaro kompetensiyaviy darajalari va ularni boshqa fanlarga tatbiqi haqida tushuncha bering.

## 2. Glossariyni to'ldiring:

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning izohi
<i>metod</i>	<i>method</i>	<i>метод</i>	
<i>metodika</i>	<i>technique</i>	<i>методика</i>	
<i>metodologiya</i>	<i>methodology</i>	<i>методология</i>	
<i>yondashuv</i>	<i>an approach</i>	<i>подход</i>	
<i>prinsip</i>	<i>principle</i>	<i>принцип</i>	
<i>pedagogik texnologiya</i>	<i>pedagogical technology</i>	<i>педагогическая технология</i>	
<i>o'qitish texnologiyasi</i>	<i>learning technology</i>	<i>технология обучения</i>	
<i>kompetensiya</i>	<i>competence</i>	<i>компетенция</i>	
<i>kompetensiyaviy yondashuv</i>	<i>competence approach</i>	<i>компетентностный подход</i>	
<i>xususiy kompetensiya</i>	<i>private competence</i>	<i>частная компетенция</i>	
<i>nutqiy kompetensiya</i>	<i>speech competence</i>	<i>речевая компетенция</i>	
<i>lingvistik kompetensiya</i>	<i>linguistic competence</i>	<i>лингвистическая компетенция</i>	
<i>sotsiokulturologik kompetensiya</i>	<i>sociocultural competence</i>	<i>социокультурологическая компетенция</i>	
<i>pragmatik kompetensiya</i>	<i>pragmatic competence</i>	<i>прагматическая компетенция</i>	
<i>metakompetensiya</i>	<i>metacompetence</i>	<i>метакомпетенция</i>	

### Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Umarxo'jayev M.E. Umumiy tilshunoslik. – Andijon, 2007/2010.
2. Sodiqov A., Xolmurodov A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2014.
3. Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. – М., 2009.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2007/2010.

## 2-Амалий машғулот:

### PRAGA, KOPENGAGEN, AMERIKA STRUKTURAL MAKTABLARINING ASOSIY G'OYALARI


#### Struktural lingvistika va uning maktablari

Strukturalizm atamasi va tushunchasi dastlab golland faylasufi X.I. Boasning 1939-yilda nashr qilingan maqolasida tilga olingan bo'lib, u tilni belgilar sistemasi sifatida o'rganuvchi, tilshunoslikning asosiy komponentlari – fonetika, grammatika, leksika o'rtasidagi o'zaro bog'lanish va munosabatlarni tekshiruvchi, tilning tuzilishi to'g'risidagi ta'limot hisoblanadi. Bu aslida Ferdinand de Sossyur tomonidan bildirilgan g'oya asosida yuzaga kelgan lingvistik yo'nalish bo'lib, XX asrning 30-yillaridan struktural lingvistika maqomini oldi va Chexoslovakiya hamda Daniya olimlari tomonidan rivojlantirildi.

Strukturalizm tilni faqat tarixiy tomondan va qiyoslab o'rganishni cheklash, har bir tilni grammatik qurilishi va amal qilishi nuqtayi nazaridan o'rganishni ilgari suradi.

#### Strukturalizm yo'nalishining umumiy xususiyatlari:

- 1. Til belgi – semiotik tizim: tilning tuzilishi pog'onali, unda har bir belgi mavjud strukturaning ichki munosabatidir.
- 2. Tilning asosiy birliklari – fonema va morfemalar, ular o'rtasidagi paradigmatic va sintagmatik munosabatlar til birliklarining asosiy tuzilish shakllari hisoblanadi.





- 3. Tilni o‘rganishda diaxronik metodlarga qaraganda sinxronik tavsif metodlari afzalroqdir.
- 4. Til birligi tarkibini lingvistik tavsif qilishda lingvistik tadqiqotlar birinchi o‘rinda turadi.

### **Strukturalizmning quyidagi maktablari yuzaga keldi:**

1. Praga funksional lingvistika maktabi;
2. Amerika deskriptiv lingvistika maktabi;
3. Kopenhagen glossematika lingvistika maktabi.

### **Praga funksional lingvistika maktabi**

Strukturalizmning dastlabki qarashlari 1926-yilda Chexoslovakiyadagi Praga lingvistik to‘garagi tomonidan tashkil qilingan, 1929-yildan mustaqil oqim sifatida rivojlanib, o‘z qarashlarini 10-yil mobaynida muntazam nashr qilingan “Praga lingvistik to‘garagining asarlari”da ifoda qilingan. Bu maktab XX asrning 30-yillarida gullab-yashnadi, ammo 40-yillarga kelib, uning faoliyati pasaydi va 1953-yilda tashkiliy jihatdan tarqalib ketdi. Biroq ushbu maktabning g‘oyalari jahon lingvistikasiga katta ta‘sir qildi va hozirgi kunda ham ta‘sir qilib kelmoqda. Uning yetakchi namoyondalari: chex tilshunosi Vilyam Matezius (1882-1945), Garvard universiteti professori Roman Osipovich Yakobson (1896), rus tilshunosi, slavyanist va fonolog Nikolay Sergeevich Trubeskoy (1890-1938)lar bo‘lganlar.

Praga struktural maktabining funksional lingvistika deb atalishiga sabab u tildagi har bir elementning o‘z funksiyasi mavjud, deb hisoblaydi. Ushbu maktab namoyondalari tilning morfologik tuzilishi, sintagmalar, lingvistik nominatsiyalarni jiddiy o‘rgandilar, sintagmatikani alohida nazariya sifatida ilgari surib, gap bo‘laklarini an’anaviy o‘rganuvchi sintaksisga qarama-qarshi qo‘ydilar.

Xususan, o‘zaro mantiqiy munosabatlarda gap bo‘laklarining aktual qismlarga bo‘linishi to‘g‘risidagi Mateziusning ta‘limoti katta obro‘ga ega bo‘ldi. Uning fikricha, agar rasmiy, an’anaviy mantiqiy grammatik bo‘linishdagi asosiy elementlar grammatik obyekt va grammatik predikat bo‘lsa, unda dolzarb bo‘linishda so‘zning o‘zak va yadrosi o‘zini namoyon qiladi. Gapning aktual bo‘linishida ohang (intonatsiya) va gap tartibi asosiy vositalar sifatida xizmat

qiladi. Til va nutqni chegaralash til va stil faoliyatining chegaralanishiga olib keladi. Struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishida Praga lingvistika maktabi alohida o‘rin egallaydi. Bu maktab negizida 1926 yilda mashhur chex tilshunosi V.Matezius (1882-1945) tashabbusi bilan tashkil etilgan Praga lingvistik to‘garagi a‘zolarining qarashlari yotadi. Praga lingvistik to‘garagining nazariy qarashlari 1929 yilda Pragada bo‘lib o‘tgan slavyanshunoslarning I xalqaro se‘zida tavsiya etilgan “Praga lingvistik to‘garagi tezislari”da bayon qilingan.

Praga lingvistik maktabining o‘ziga xos xususiyati **strukturlik** va **funksionallik**dir. Bu maktab vakillari tilning strukturligiga tayanish bilan birga, til va uning birliklarining vazifasiga jiddiy e‘tibor beradilar.

Praga lingvistik maktabining funksionalligi 1958 yilda bo‘lib o‘tgan slavyanshunoslarning xalqaro IV se‘zida B.Gavranek, K.Goralek, V.Skalichka va P.Trostlar tomonidan tavsiya etilgan tezislarda aniq o‘z ifodasini topdi.

Unda ta’kidlanishicha, Praga maktabi lingvistik konsepsiyasining ikki muhim jihati mavjud. Ularning har ikkisi Praga maktabining lingvistikaga olib kirgan yangilik uchun bir xil qimmatga ega. Bu muhim ikki jihatning birinchisi **strukturallikdir**. Praga lingvistlari lingvistik muammolar qatoriga struktura muammosini, ya’ni tilning struktur xarakteri va uning qismlari o‘rtasidagi munosabat muammosini olib kiradi.

Ikkinchi jihat shundan iboratki, Praga lingvistik maktabi **funksionaldir**. “Funksiya” atamasi bu o‘rinda tobelilik (“zavisimost”) ma’nosida emas, balki vazifa ma’nosida qo‘llaniladi.

SHunday qilib, strukturlik va funksionallik Praga lingvistik maktabining ikki muhim xususiyati hisoblanadi. SHuning uchun ham Praga lingvistik maktabi funksional lingvistika nomi bilan yuritiladi.

“Praga lingvistik to‘garagi tezislari” da bayon qilinishicha, til inson faoliyatining hosilasi bo‘lishi bilan birga, ma’lum maqsadga yo‘naltirilganlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun lingvistik tahlilga funksional nuqtai

nazardan yondashmoq lozim. Ana shu jihatdan til muayyan maqsadga xizmat qiluvchi ifoda vositalari sistemasi hisoblanadi.<sup>3</sup>

Tezisdagi hech bir hodisa shu til mansub bo'lgan sistemani hisobga olmasdan turib to'g'ri tushunilishi mumkin emasligi, shuning uchun tilga funksional sistema sifatida yondashish lozimligi ta'kidlanadi.

Yuqorida ko'rsatilganidek, Praga lingvistik maktabi tilni struktur tushunishga tayanadi va shunga muvofiq ravishda lingvistik tadqiqotning struktur metodlariga tayanadi. Lekin strukturalizm tushunchasining o'zi xilma-xil bo'lganidek, tilni struktur o'rganish metodlari ham bir-biridan farq qiladi.

L.Elmslev o'z qarashlarida Ferdinand de Sossyurning tilshunoslikka kiritgan, to'g'rirog'i, tilshunoslikka qaytargan ikkita zidlanishga doimo murojaat etadi. Bu zidlanishlarning birinchisi *Lingua* va *parole* (til va nutq) o'rtasidagi zidlanish bo'lsa, ikkinchisi *significant* va *signifie* (ifodalovchi va ifodalanmish) o'rtasidagi zidlanishdir.

V.Skalichka bu zidlanishlarning hamma tilshunoslar tomonidan bir xil e'tirof etilishini tan oladi. Ayni paytda bu zidlanishlarning talqinida Sossyurning o'zida qator noaniqliklar, noizchilik mavjudligini taassuf bilan qayd etadi. Buning sababini "Umumiy lingvistika kursi" kitobini Sossyurning o'zi nashrga tayyorlamaganligida va yuqoridagi zidlanishlar haqidagi qarashlarning keyingi avlodlar tomonidan bunchalik keng tahlil etilishini oldindan ko'rolmaganligida deb biladi.

Bunday noaniqlik va noizchilik, eng avvalo, *Lingua* va *parole* zidlanishi izohida ko'rinishini ta'kidlaydi. Bir o'rinda til (*Lingua*) - bu "ko'nikmalarimiz yig'indisi" (37-bet) sifatida izohlansa, boshqa erda til – bu "substansiya emas, balki shakldir" (157-bet) deyiladi.

SHuningdek, ifodalovchi va ifodalanmish zidlanishida ham ana shunday noaniqlikka yo'l qo'yiladi. Sossyurning fikricha, ifodalanmish-bu narsa (*lackose*)

---

<sup>3</sup> Тезисы Пражского лингвистического кружка.-В.А.Звегинцев. История языкознания XIX и XX веков в очерках и извлечениях. Ч.II., -М., 1960, с 69

emas, balki faqat tushuncha (Le concept)dir (98-bet). Natijada belgining borliqqa munosabati noaniq bo‘lib qoladi.

Praga tilshunoslari esa F.de Sossyurning sinxroniya va diaxroniya zidlanishi haqidagi yuqoridagi fikriga e‘tiroz bildirganlari holda, ular o‘rtasida o‘tib bo‘lmas jarlik yo‘qligini, o‘zaro uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. Xususan, “tezislar”da Jeneva maktabi vakillari bayon qilganliklari kabi sinxron va diaxron metod o‘rtasida katta chegara yo‘qligini bayon qiladilar. Ularning fikricha, sinxron lingvistikada sistema elementlariga funktsiya nuqtai nazaridan yondashilsa, tilda bo‘lgan o‘zgarishlar diaxron metod orqali o‘rganiladi. Diaxron yondashuv sistema va funktsiyani rad etmaydi, balki bu tushunchalarni e‘tiborga olmasdan turib tadqiqot chala bo‘lishini ko‘rsatadilar.<sup>1</sup>

Sossyurning g‘oyalari keyinchalik strukturalizm deb nomlanuvchi yo‘nalishlar tomonidan rivojlantirildi. Fonologiya, ya’ni struktural fonetika tezda barcha tilshunoslar tomonidan tan olingan fanga aylandi.

Praga tilshunoslari o‘zlarining yangi lingvistik nazariyasini yaratar ekanlar, bir tomondan F.de Sossyur qarashlariga, ikkinchi tomondan, I.A.Boduen de Kurtene qarashlariga tayanadilar va ularni rivojlantirdilar.

Matezius Praga lingvistlarining funksional va struktural konsepsiyasi Boduen de Kurtene va F.de Sossyur g‘oyalariga asoslanganligini e‘tirof etadi.<sup>4</sup>


Praga strukturalistlari garchi F.de Sossyur va I.A.Boduen de Kurtenening g‘oyalariga asoslangan bo‘lsalar ham, lekin ular bu g‘oyalarga ijodiy yondashdilar va yuqoridagi olimlarning cheklangan tomonlarini bartaraf qilishga harakat qildilar.

Xususan, F.de Sossyur tilning sinxron va diaxron holatini ajratar ekan, sistemaviylik faqat sinxroniyaga dahldor ekanligini ta’kidlagan edi.

---

<sup>1</sup> Тезисы Пражского лингвистического кружка.-Звегинцев В.А.История языкознания XIX-XX вв.в очерках и извлечениях. Часть II. -М., 1960, с.70

<sup>4</sup> Тезисы Пражского лингвистического кружка.-Звегинцев В.А.История языкознания XIX-XX вв.в очерках и извлечениях. Часть II. -М., 1960, с.70



## Amerika deskriptiv lingvistika maktabi

Ushbu lingvistik maktab Amerikaning mashhur lingvisti va antropologi Frans Boas (1858-1942) ilmiy qarashlari asosida 1933-1957-yillarda AQShda vujudga keldi. F.Boas Amerika hindularining tasviriy grammatikasiga bag'ishlangan asarlarida barcha tillarni tasvirlashning yagona tamoyilini inkor qilishga va aniq tilning o'z mantiqi asosida, tilning "ichidan" induksiya yo'li bilan o'rganishga chaqirgan edi. F.Boasning ishini Eduard Sepir (1884-1939) hamda Leonard Blumfild (1887-1949) davom ettirdilar. E.Sepir Kanada, Meksika va AQShdagi mahalliy aholilar tillari bo'yicha tadqiqotlar olib borib, o'zining asosiy "Til" (1921) asarida tilni insonning aloqa quroli bo'lgan aniq tillar ta'siri ostida bo'lishini, insonlarning madaniyati qanday bo'lishi ham tillarga bog'liq bo'lishini ilgari surgan. Sepir tilshunoslikda etnolingvistika yo'nalishining shakllanishiga asos soldi.

Sepirning izdoshi E.Sepir va uning izdoshlari B.Uorf (1897-1941), L.Blumfildlar dastlab Sossyur ta'limotidan ilhomlangan bo'lsalar ham, keyinchalik chetga chiqib ketdilar. Sossyurdan farq qilgan holda Sepir tilda shaklni (formani) ikkilamchi deb



hisoblaydi. L.Blumfild tilni tasvirlashning metodini psixologiyadagi bixeviorizm (xatti-harakat psixologiyasi) oqimiga mosladi. Shunga ko'ra u so'zlashish jarayoni qator fiziologik stimullar va reaksiyalar – qabul qilish, eshitish, tinglab tushunish, bunda tashqi ta'sirning o'rni va ahamiyati kabilardan iborat bo'ladi. Ularning fikricha, til – tashqi va ichki aloqalarga ega bo'lgan signallar (xabarlar) sistemasi, shunga ko'ra til metalingvistika va makrolingvistika qismlaridan iborat.

Metalingvistika tilning og'zaki faoliyati-tashqi holatini o'rganib, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, mentalingvistika, paralingvistika (til atrofidagi hodisalar, imo-ishoralar, intonatsiya va boshqalar) kabi fanlarni birlashtiradi. Makrolingvistika ifodalar to'g'risidagi fan bo'lib, matn

(nutq bo‘lagi) bilan shug‘ullanadi. Matn bo‘laklari – fonema va morfemalar muayyan izchillik, ketma-ketlikdagi til birliklaridir.

Aynan shu deskriptiv lingvistikani shakllantirdi. Deskriptiv lingvistika matni har tomonlama tasvirlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning asosida distrubitsiya tushunchasi yotadi. Distrubitsiya muayyan til birligi qo‘llanishi mumkin bo‘lgan yoki mumkin bo‘lmagan kontekstlar yig‘indisi, ya‘ni gap bo‘laklarining bir-biriga nisbatan joylashish o‘rni, tarkibi, birikishi va qo‘llanish xususiyatidir. Ushbu qarashlar tilni sistema sifatida o‘rganish, til va nutqni farqlashga qaratilgan hozirgi zamonaviy tilshunoslikning rivojlanishida muhim omil bo‘ldi.

Ta’kidlash kerakki, Amerika tilshunosligida L.Blumfildning ilmiy qarashlari bu tilshunoslik tizimida yorqin iz qoldirgandir.

L.Blumfild ijodida *substitut*, substitutsiya atamaları ham markaziy o‘rinni egallaydi. Uning “Til” asarida substitutsiyaga bag‘ishlangan alohida bob ajratiladi. Ma’lum bir sharoitda biri o‘rnida ikkinchisi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan lisoniy shakllar substitutlar, ana shunday hodisa esa substitutsiya sanaladi.<sup>2</sup>

O‘zaro substitutsiya munosabatida bo‘lgan birliklar bir sinfning, bir paradigmaning a‘zolari hisoblanadi. Demak, paradigma yoki sinf a‘zolarini belgilashda substitutsiya yordam beradi.

L.Blumfild sintaktik birliklarga ham xuddi morfologik birliklar kabi konstruksiya sifatida yondashadi va uning tarkibiy qismlarini *bevosita ishtirokchilarga* ajratish yo‘li bilan tahlil etadi. Demak, konstruksiya tarkibini o‘rganish morfologik sathda ham, sintaktik sathda ham bir xil tamoyilga asoslanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, sintaktik qurilmalarni talaffuz qilish jarayonida til birliklarining sintagmatik munosabatidan tashqari, bu birliklarning ustiga qo‘yilgan ustsegment birliklar ham qo‘shiladi. Ya‘ni matn tarkibidagi gaplar bir-biridan ohang va pauza bilan ajralib turadi. Gap tarkibidagi bo‘laklar ham ana shunday ajralish xususiyatiga ega. Shuningdek, har bir so‘z ham o‘zining bosh urg‘usi

---

<sup>2</sup> Блумфилд Л. Ўша асар, с.269.

ostida tarkibidagi bo‘g‘inlarni birlashtiradi va bu bosh urg‘u boshqa shunday bosh urg‘uga ega bo‘lgan so‘zdan ajratib turishga xizmat qiladi.

L.Blumfild sintaktik qurilmalarning ana shu tomonlarini o‘rganadigan alohida yo‘nalish bo‘lishini tavsiya etadi va bu yo‘nalishni *parataksis* deb nomlaydi. Demak, sintaksis bir chiziqda o‘zaro ketma-ket bog‘langan segment birliklarni o‘rgansa, parataksis segment birliklar ustiga qo‘yilgan va sintaktik birliklarni izohlashga yordam beradigan ustsegment birliklarni o‘rganishini ta’kidlaydi.

Shuningdek, **til sathlari nazariyasi** ham L.Blumfild nomi bilan bog‘liqdir. Uning fikricha, tilni tavsiflashni eng quyi sath bo‘lgan fonologik sathdan boshlash lozim. Unda fonemalar miqdori aniqlanadi va bu fonemalarning qo‘shilish imkoniyatlari belgilanadi. Fonologik sath tavsiflangandan so‘ng yuqori sath-semantik sathga o‘tildi. Bu sath grammatika va leksikani o‘z ichiga oladi. N.Xomskiy esa lingvistik nazariyaning markaziy masalasi “Lingvistik sath nazariyasi” ekanligini ko‘rsatadi.<sup>1</sup>

Shunday qilib, L.Blumfild tilni tadqiq etishining izchil sistemasini ishlab chiqdi.

Yu.D. Apresyanning e’tirof etishicha, L.Blumfild ishlab chiqqan sistema lingvistik tahlil texnikasini mukammallashtirishda metodologik asos rolini bajardi. O‘tgan asrning 30-yillari oxiri, 50-yillari boshlarida shakllangan va Amerika strukturalizmning eng obro‘li tarmog‘i sanalgan distributiv lingvistikaning paydo bo‘lishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qildi.

### **Kopengagen strukturalizmi**

Kopengagen strukturalizmi XX asrda – 30-yillarning boshlarida Daniyada tashkil topdi. Tilshunoslikdagi bu yo‘nalish glossematika deb ham ataladi.

Kopengagen strukturalizmining asoschisi Lui Yelmslev (1899-1965) bo‘lib, o‘zi yaratgan maktabga 1936-yilda glossematika nomini berdi. Bu bilan olim tilga, til hodisalariga avvalgi tilshunoslik tadqiqotchilardan farqli yangicha nuqtai nazardan yondashayotganligini alohida qayd etadi.

---

<sup>1</sup> Хомский Н. Синтаксические структуры. -сб. Новое в лингвистике. П.1966.с.415.



Kopengagen strukturalizmining – glossematikaning nazariy asoslari L. Yelmslevning “Umumiy grammatika prinsiplari” (1928), “Kelishik kategoriyasi” (1935,1937), “Til va nutq” (1942) va, ayniqsa, “Lingvistik nazariya asoslari” (1943) kabi asarlarida bayon qilinadi.

Daniyalik V.Bryondal, X. Uldallar ham glossematika maktabining vakillari hisoblanadi.

Glossematiklarda til sinxron – hozirgi bir davrdagi sof munosabatlarning mavhum sistemasi sifatida beriladi. Bunda har bir konkret tilning o`ziga xosligi, xususiyatlari inkor qilinadi. Ular “tilshunos tilning real elementlari orasidagi o`zaro munosabatni emas, balki tildagi zamon va makon chegarasi bo`lmagan munosabatlar strukturasinigina tekshirishi lozim, degan universal ta`limotni yaratmoqchi bo`ladilar. Shunday qilib, “munosabatlar lingvistikasi” birinchi o`ringa qo`yilib, real tillar, ularning tovush materiyasi va mahno masalasi ikkilamchi hodisalar deb qaraladi”.

L.Elmslev F. de Sossyurning til va nutq antinomiyasiga munosabat bildirar ekan, u nutqni individual jarayon (akt) sifatida tushunib, unga sxema – til sxemasi, norma – til normasi (me`yori) va uzus – til uzusini zid qo`yadi.

Sxema – til sxemasi o`zining ijtimoiy amalga oshishiga va moddiy voqelashishiga bog`liq bo`lmagan alohida sof formadir.

Norma – til normasi (me`yori) muayyan ijtimoiy reallashishiga ko`ra aniqlanuvchi, ammo batafsil bayon qilinishiga bog`liq bo`lmagan moddiy formadir.

Uzus – til uzusi muayyan ijtimoiy jamoada qabul qilingan va kuzatilayotgan voqelikdagi faktlar bilan aniqlanuvchi malakalarning jamidir.

L.Elmslev aniq bir individual nutq aktining til uzusi bilan yaqindan bevosita aloqada ekanligini, uning til uzusi bilan tilning moddiy jihatini tashkil qilishini alohida qayd etadi.



Glossematiklarning g`oyaviy rahbari L.Elmslev F.de Sossyur ta`limotidagi ifodalanuvchi va ifodalovchi antinomiyanı – ushbu terminlarni mazmun plani va ifoda plani terminlari bilan almashtiradi.

Ifoda plani termini ostida tilning tashqi, tovush tomoni tushuniladi.

Mazmun plani termini ostida esa tilda o`z ifodasini topuvchi, ifodalanuvchi fikrlar, g`oyalar tushuniladi.

Xulosa shuki, strukturalizm maktablari – Praga strukturalizmi (funktional tilshunoslik), Amerika strukturalizmi (deskriptiv tilshunoslik) va Kopengagen strukturalizmi (glossematika) bir-biridan tashkil topgan joy nomiga, tilni struktural hodisa sifatida olib, uni tuzilishiga ko`ra tahlil qilishda qo`llaniladigan metodlariga ko`ra, lisoniy hodisalarga qaysi pozitsiya nuqtai nazaridan yondashishiga ko`ra o`zaro farqlanadi.

Ayni vaqtda struktural tilshunoslik maktablari eng asosiy, eng muhim nuqtalarda umumiy g`oyalarga ko`ra o`zaro birlashadilar.

Bular:

1. Tilshunoslik faning tekshirish obyekti tildir.
2. Til muayyan munosabatda bo`lgan, o`zaro bog`liq, bir-birini talab qiladigan belgilar, elementlar sistemasidir.
3. Til sinxron tadqiqot obyektidir.
4. Til alohida yaruslardan tashkil topgan strukturadir.
5. Til va nutq farqlidir.
6. Fonema – til birligi, tovush nutq birligidir va boshqalar.

### **1. Savol va topshiriqlar:**

1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik haqida gapiring.
2. Qiyosiy-tarixiy metodlar haqida aytib o`ting.
3. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka o`z hissasini qo`shgan olimlar haqida gapiring.
4. V.Gumboldtning til haqidagi nazariy-falsafiy qarashlari qaysi asarida bayon etiladi?
5. Birinchi davrning muhim xususiyati nimada?

6. Hind-Yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o`rganish qaysi davrlarni o`z ichiga oladi?

7. V.Gumboldtning til shakli ta'limotining asosiy g'oyasi nimalardan iborat?

## 2. Glossariyni to'ldiring:

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning izohi
<i>qiyosiy-tarixiy tilshunoslik</i>	<i>comparative-historical linguistics</i>	<i>сравнительно-историческое языкознание</i>	
<i>qiyosiy-tarixiy metod</i>	<i>comparative historical method</i>	<i>сравнительно-исторический метод</i>	
<i>grammatik kategoriya</i>	<i>grammatical categories</i>	<i>грамматические категории</i>	
<i>til funksiyalari</i>	<i>language functions</i>	<i>функции языка</i>	
<i>ichki forma</i>	<i>inner structure</i>	<i>внутренняя форма</i>	
<i>so'zning semantik strukturasi</i>	<i>semantic structure of a word</i>	<i>семантическая структура слова</i>	
<i>yosh grammatikachilar</i>	<i>young grammarians</i>	<i>младограммати́сты</i>	
<i>ratsional grammatikalar</i>	<i>rational grammar</i>	<i>рациональная грамматика</i>	
<i>universal grammatikalar</i>	<i>universal grammar</i>	<i>универсальная грамматика</i>	
<i>mantiqiy grammatika</i>	<i>logical grammar</i>	<i>логическая грамматика</i>	

### Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Umarxo`jayev M.E. Umumiy tilshunoslik. – Andijon, 2007/2010.
2. Sodiqov A., Xolmurodov A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2014.
3. Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. – М., 2009.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2007/2010.

### **3- амалий машғулот:**

## **PRAGA STRUKTURAL MAKTABIDA “GAPNI AKTUAL BO’LAKLARGA AJRATISH” (V. MATEZIUS) METODINING YARATILISHI**

### **Praga sturkturalizmi**

Strukturalizm – struktural lingvistika XX asrning 20-yillarining oxirida (1926) yuzaga kelib, hozirgi zamon tilshunosligining o`ziga xos yetakchi oqimlaridan, yo`nalishlaridan biri bo`lib qoldi. Ushbu tilshunoslik til strukturasi (qurilishini) til nazariyasining asosi deb bildi.

Struktural lingvistika tilni ishoralar (belgilar) sistemasi sifatida o`rganadi va uning shartli belgilik hususiyati bilangina qiziqadi. U tildagi belgilarning munosabatlari, oppozitsiyalari yoki funksiyalariga alohida e`tibor berganidan til birliklaridan biri mavjud bo`lgani uchungina boshqasi mavjuddir deb hisoblaydi. Struktural lingvistika o`zaro munosabatlardan mustaqil ravishdagi materiyaning yoki reallikning bo`lishini inkor qiladi. Shunga ko`ra lingvistik birliklar munosabatlar orqali belgilanishi lozimligini qayd etadi. Vaholanki lingvistik birliklar birlamchi bo`lib, ular orasidagi munosabat shu birliklar mavjud bo`lgani uchungina mavjuddir.

Hozirgi davrda strukturalizmning asosiy maktablari uchta bo`lib, ular Praga strukturalizmi, Amerika strukturalizmi va Kopengagen strukturalizmi nomi bilan ataladi.

**Praga sturkturalizmi.** Praga strukturalizmi 1926-yilda Chexoslovakiyaning poytaxti Praga shahrida tashkil topdi. Ayni strukturalizm umumiy tilshunoslikda funksional lingvistika nomi bilan ham yuritiladi.

Ushbu maktabning funksional tilshunoslik deb atalishi asosida til birliklarining har biri muayyan funksiyaga egaligi, ularning tilda (nutqda) muayyan vazifani bajarish g`oyasi yotadi.

Struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishida Praga lingvistika maktabi alohida o`rin egallaydi. Bu maktab negizida 1926-yilda mashhur chex tilshunosi V.Matezius (1882-1945) tashabbusi bilan tashkil etilgan Praga lingvistik

to‘garagi a‘zolarining qarashlari yotadi. Praga lingvistik to‘garagining nazariy qarashlari 1929-yilda Pragada bo‘lib o‘tgan slavyanshunoslarning I xalqaro s‘yezdida tavsiya etilgan “Praga lingvistik to‘garagi tezislari”da bayon qilingan.

Praga lingvistik maktabining o‘ziga xos xususiyati strukturlik va funkcionallikdadir. Bu maktab vakillari tilning strukturligiga tayanish bilan birga, til va uning birliklarining vazifasiga jiddiy e‘tibor beradilar.

Praga maktabi lingvistik konsepsiyasining ikki muhim jihati mavjud. Ularning har ikkisi Praga maktabining lingvistikaga olib kirgan yangiligi uchun bir xil qimmatga ega. Bu muhim ikki jihatning birinchisi strukturallikdir. Praga lingvistlari lingvistik muammolar qatoriga struktura muammosini, ya‘ni tilning struktur xarakteri va uning qismlari o‘rtasidagi munosabat muammosini olib kiradi.

Ikkinchi jihat shundan iboratki, Praga lingvistik maktabi funkcionaldir. “Funksiya” atamasi bu o‘rinda tobelilik (“zavisimost”) ma‘nosida emas, balki vazifa ma‘nosida qo‘llaniladi.

Shunday qilib, strukturlik va funkcionallik Praga lingvistik maktabining ikki muhim xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun ham Praga lingvistik maktabi funkcionallik lingvistika nomi bilan yuritiladi.

“Praga lingvistik to‘garagi tezislari”da bayon qilinishicha, til inson faoliyatining hosilasi bo‘lishi bilan birga, ma‘lum maqsadga yo‘naltirilganlik xususiyatiga ega bo‘ladi. Shuning uchun lingvistik tahlilga funkcionallik nuqtai nazardan yondashmoq lozim. Ana shu jihatdan til muayyan maqsadga xizmat qiluvchi ifoda vositalari sistemasi hisoblanadi.

Tezisdagi tildagi hech bir hodisa shu til mansub bo‘lgan sistemani hisobga olmasdan turib to‘g‘ri tushunilishi mumkin emasligi, shuning uchun tilga funkcionallik sistema sifatida yondashish lozimligi ta‘kidlanadi.

Struktural lingvistika til strukturasi til nazariyasining asosi deb bildi.  
Strukturalizm g‘oyalari asosiy uchta maktabda o‘z aksini va asosini topdi.

- 1) Praga strukturalizmi
- 2) Amerika strukturalizmi

Funksional lingvistika maktabi vakillari:

**Vilyem Matezius**

**Roman Osipovich  
Yakobson**

**Boguslav Gavranek**



N.S. Trubetskoy til va nutq dixotomiyasini e'tirof etgani holda, nutqiy jarayonning bu ikki aspekti o'rtasida katta tafovut mavjudligini, shuning uchun nutqiy jarayonning tovush tomonini turli fanlar o'rganishi lozimligini ko'rsatadi.

Ana shu asosda N.S. Trubetskoy til tovushlari va nutq tovushlarini ajratadi. Uning fikricha, nutq tovushlari haqidagi ta'limot konkret moddiy hodisalar bilan ish ko'rganligi tufayli tabiiy fanlarning tekshirish metodi bilan ishlash lozim bo'lsa, til tovushlari, aksincha, sof lingvistik metod bilan ish yuritadi. Shunga ko'ra, nutq tovushlari haqidagi ta'limotni fonetika, til tovushlari haqidagi ta'limotni esa fonologiya deb nomlanishini ta'kidlaydi.

Funksiya tushunchasini Praga lingvistlari tilni funksional sistema sifatida talqin etishda rivojlantirdilar.

Boduen de Kurtene tashqi va ichki lingvistikani bir-biridan ajratar ekan, tilni tildan tashqaridagi borliqdan ajratib o'rganishga qat'iy qarshi chiqadi. Shuning uchun u adabiy til bilan xalq shevalari o'rtasidagi munosabatni o'rganishga alohida ahamiyat beradi.

Praga lingvistlari Boduenning bu qarashlarini rivojlantirdilar. Ular hech qanday til bo'shliqda yashamasligi, uning til jamoasi o'rtasida mavjud bo'lishini, jamoaning kommunikativ va ekspressiv ehtiyojini qondirish uchun yashashini ta'kidlaydilar. Ana shundan kelib chiqib, Praga tilshunoslari nutqiy faoliyatni ikki

asosiy funksiya bajarishini ko'rsatadi: 1) *sotsial funksiya* (individlar o'rtasidagi munosabat); 2) *ekspressiv funksiya* (hayajon ifodalash, so'zlovchiga ta'sir etish).

Nutqiy faoliyatning sotsial funksiyasi, o'z navbatida, yana ikki guruhga ajratiladi: 1) *axborot funksiyasi*. Bunda so'zlovchining butun e'tibori ma'lum axborotni uzatishga qaratiladi; 2) *poetik funksiya*. Bunda asosiy e'tibor axborotni uzatish shakliga qaratiladi, ya'ni nimani ifodalash bilan birga, qanday ifodalashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Tildan kommunikativ funksiyada foydalanish jarayonida unga tilga yondosh (ekstralingvistik) hodisalar ham yordamga keladi. Bunday hodisalar qatoriga imo- ishoralar, mimika, nutq vaziyati singari hodisalar kiradi.

Bunday tilni Praga tilshunoslari *amaliy til* deb hisoblaydilar va uni ma'lum nutqiy vaziyatdan holi bo'lgan sistemadan iborat *nazariy tilga* qarama-qarshi qo'yadilar. Nazariy til aniq va to'liq, ko'pincha grafik belgilar va simvollar orqali ifodalangan bo'ladi. Xususan, ilmiy uslub orqali namoyon bo'lgan til ana shunday xususiyatga ega bo'ladi.

Praga tilshunoslari funksiyaga alohida e'tibor berganliklari holda, nutqiy faoliyatning turli funksiyalari mavjud ekanligi, ularning har biriga turli funksional tillar to'g'ri kelishi lozimligini ta'kidlaydilar.

Til funksiyalari nazariyasi va u bilan bog'liq adabiy tilning funksional farqlanishi masalasi Praga lingvistik maktabi vakillarining ilmiy va amaliy faoliyatida muhim o'rinni egallaydi.

Praga tilshunoslari tilning barcha sath birliklarini funksional o'rganishga alohida ahamiyat berdilar.

### **Praga maktabi ta'limotining asosiy g'oyalari**

Praga maktabi ta'limotining asosiy g'oyalari quyidagilar:

1. Tilshunoslik – o'z obyektiga ega bo'lgan mustaqil fan.
2. Til – sistema.
3. Til – funksional sistema, ya'ni til muayyan maqsadga yo'naltirilgan ifoda vositalari sistemasidir.

4. Fonologiya – nazariy fonologiya. Fonemaning soʻz va morfemalarni farqlash qobiliyatiga egaligi. Fonema tilning eng kichik fonologik birligi. Nutq tovushlari fonemaning moddiy simvollari, belgilari, fonemaning nutqdagi reallashishi. Demak, fonema bilan tovush farqlanadi.
5. Sinxroniya va diaxroniya. Praga strukturalistlari tilni tadqiq qilishda, asosan, sinxroniyani – sinxron metodni ilgari suradilar. Shu bilan birga ular tilning mohiyatini ochishda diaxroniyani – diaxron metodni ham hisobga oladilar. Yaʼni ular diaxroniyani inkor qilmaydilar. Demak, tilni – til hodisalarini, birliklarini tahlil qilishda sinxroniya va diaxroniya dialektik bogʻliq holda olinadi.
6. Til belgisi boʻlgan soʻz – mustaqil birlik. U vazifasiga, nomlanishiga koʻra nominativ faoliyat mahsuli boʻlib, jamiyatda nominativ funksiya bajaradi.
7. Tilning morfologik sistemasi morfema bilan belgilanadi.
8. Gapning aktual boʻlinishi masalasi va boshqalar.

### **Praga lingvistlarining funksional va struktural konsepsiyasi**

Praga tilshunoslari oʻzlarining yangi lingvistik nazariyasini yaratar ekanlar, bir tomondan F.de Sossyur qarashlariga, ikkinchi tomondan, I.A.Boduen de Kurtene qarashlariga tayanadilar va ularni rivojlantirdilar.

Matezius Praga lingvistlarining funksional va struktural konsepsiyasi Boduen de Kurtene va F.de Sossyur gʻoyalari asoslanganligini eʼtirof etadi.<sup>1</sup>

Praga strukturalistlari garchi F.de Sossyur va I.A.Boduen de Kurtenening gʻoyalari asoslangan boʻlsalar ham, lekin ular bu gʻoyalarga ijodiy yondashdilar va yuqoridagi olimlarning cheklangan tomonlarini bartaraf qilishga harakat qildilar.

Xususan, F.de Sossyur tilning sinxron va diaxron holatini ajratar ekan, sistemaviylik faqat sinxroniyaga dahldor ekanligini taʼkidlagan edi.

---

<sup>1</sup> Матезиус. Куда мы пришли в языкознании-В.А.Звегинцев. История языкознания....с,146

<sup>2</sup> Тезисы Пражского лингвистического кружка.-Звегинцев В.А.История языкознания XIX-XX вв.в очерках и извлечениях. Часть II. -М., 1960, с.70

Praga tilshunoslari esa F.de Sossyurning sinxroniya va diaxroniya zidlanishi haqidagi yuqoridagi fikriga e'tiroz bildirganlari holda, ular o'rtasida o'tib bo'lmaz jarlik yo'qligini, o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ta'kidlaydilar. Xususan, "tezislar"da Jeneva maktabi vakillari bayon qilganliklari kabi sinxron va diaxron metod o'rtasida katta chegara yo'qligini bayon qiladilar. Ularning fikricha, sinxron lingvistikada sistema elementlariga funktsiya nuqtai nazaridan yondashilsa, tilda bo'lgan o'zgarishlar diaxron metod orqali o'rganiladi. Diaxron yondashuv sistema va funktsiyani rad etmaydi, balki bu tushunchalarni e'tiborga olmasdan turib tadqiqot chala bo'lishini ko'rsatadilar.<sup>2</sup>

Praga tilshunoslari sistemaviy, struktur tahlil diaxron yondashuv uchun ham zarur ekanligini ta'kidlaydilar. SHunga qaramasdan, ko'pchilik cheh tilshunoslari tilning hozirgi holatini o'rganish bilan cheklandilar.

Shuningdek, Praga tilshunoslari F.de Sossyurning til va nutq konsepsiyasini qabul qildilar va rivojlantirdilar.

F.de Sossyurning fikricha, til (la lingua) muayyan jamiyat a'zolarining ongida mavjud bo'lgan umumiy barqaror narsadir. Nutq (la parole) esa undan farqli ravishda doimo konkret va ma'lum makon va zamon bilan bog'liq bo'ladi.

N.S.Trubetskoy esa til va nutq dixotomiyasini e'tirof etgani holda, nutqiy jarayonning bu ikki aspekti o'rtasida katta tafovut mavjudligini, shuning uchun nutqiy jarayonning tovush tomonini turli fanlar o'rganishi lozimligini ko'rsatadi.

Ana shu asosda N.S.Trubetskoy til tovushlari va nutq tovushlarini ajratadi. Uning fikricha, nutq tovushlari haqidagi ta'limot konkret moddiy hodisalar bilan ish ko'rganligi tufayli tabiiy fanlarning tekshirish metodi bilan ishlash lozim bo'lsa, til tovushlari, aksincha, sof lingvistik metod bilan ish yuritadi. SHunga ko'ra nutq tovushlari haqidagi ta'limotni **fonetika**, til tovushlari haqidagi ta'limotni esa **fonologiya** deb nomlanishini ta'kidlaydi.<sup>1</sup>

Grammatika sohasida F.de Sossyurning til va nutq dixotomiyasini V.Skalichka qo'llab-quvvatladi. U grammatika atamasi ostida til doirasiga mansub bo'lgan barcha sohalarni (fonologiyadan tashqari) tushunadi. Skalichkaning

---

<sup>1</sup> Трубецкой Н.С. Основы фонологии. -М., 1960, с.



fikricha, til o'zining struktur grammatika deb yuritiluvchi maxsus o'rganish obyektiga ega. Bu bilan struktur grammatika nutq bilan ish ko'ruvchi tavsifiy (desriptiv) grammatikadan farq qiladi.

Lekin Korjinek grammatik sathda til va nutq munosabatini boshqacha tushunadi. Uning fikricha, til va nutq o'rtasidagi munosabat, bir tomondan, ilmiy tahlil, abstraksiya, sintez, tasniflash, ya'ni faktlarni ilmiy tavsiflash, ikkinchi tomondan, bu tahlil uchun obyekt bo'lib xizmat qilgan borliqning ma'lum hodisalari o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

Praga maktabi vakillari qarashlarining shakllanishiga I.A.Boduen de Kurtening tilning funksionalligi va uni sinxron tahlil etishning muhimligi haqidagi g'oyalari ham katta ta'sir qildi.

Tilshunoslikka funksionallik tamoyilini, ya'ni til vositalarini ularning bajarayotgan vazifasiga qarab baholash tamoyilini dastlab I.A.Boduen de Kurtene kiritgan edi.<sup>2</sup>

Funksiya tushunchasini Praga lingvistlari tilni funksional sistema sifatida talqin etishda rivojlantirdilar.

Boduen de Kurtene tashqi va ichki lingvistikani bir-biridan ajratar ekan, tilni tildan tashqaridagi borliqdan ajratib o'rganishga qat'iy qarshi chiqadi. SHuning uchun u adabiy til bilan xalq shevalari o'rtasidagi munosabatni o'rganishga alohida ahamiyat beradi.

Praga lingvistlari Boduenning bu qarashlarini rivojlantirdilar. Ular hech qanday til bo'shliqda yashamasligi, uning til jamoasi o'rtasida mavjud bo'lishini, jamoaning kommunikativ va ekspressiv ehtiyojini qondirish uchun yashashini ta'kidlaydilar. Ana shundan kelib chiqib, Praga tilshunoslari nutqiy faoliyatni ikki asosiy funksiya bajarishini ko'rsatadi: 1) *sotsial funksiya* (individlar o'rtasidagi munosabat); 2) *ekspressiv funksiya* (hayajon ifodalash, so'zlovchiga ta'sir etish).

Nutqiy faoliyatning sotsial funksiyasi, o'z navbatida, yana ikki guruhga ajratiladi: 1) *axborot funksiyasi*. Bunda so'zlovchining butun e'tibori ma'lum axborotni uzatishga qaratiladi; 2) *poetik funksiya*. Bunda asosiy e'tibor axborotni

---

<sup>2</sup> +аранг. О.Лешка. К вопросу о структурализме. ВЯ, 1963, № 5, с, 89

uzatish shakliga qaratiladi. Ya'ni nimani ifodalash bilan birga, qanday ifodalashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Tildan kommunikativ funksiyada foydalanish jarayonida unga tilga yondosh (ekstralingvistik) hodisalar ham yordamga keladi. Bunday hodisalar qatoriga imo- ishoralar, mimika, nutq vaziyati singari hodisalar kiradi.

Bunday tilni Praga tilshunoslari *amaliy til* deb hisoblaydilar va uni ma'lum nutqiy vaziyatdan holi bo'lgan sistemadan iborat *nazariy tilga* qarama-qarshi qo'yadilar. Nazariy til aniq va to'liq, ko'pincha grafik belgilar va simvollar orqali ifodalangan bo'ladi. Xususan, ilmiy uslub orqali namoyon bo'lgan til ana shunday xususiyatga ega bo'ladi.

Praga tilshunoslari funksiyaga alohida e'tibor berganliklari holda, nutqiy faoliyatning turli funksiyalari mavjud ekanligi, ularning har biriga turli funksional tillar to'g'ri kelishi lozimligini ta'kidlaydilar.

Ular adabiy til va funksional til o'rtasida quyidagicha munosabat mavjud ekanligini ko'rsatdilar:

<b>№</b>	<b>Adabiy til funksiyalari</b>	<b>Funksional tillar</b>
1.	Kommunikativ	So'zlashuv
2.	Amaliy ixtisoslashgan	Ish yuritish
3.	Nazariy ixtisoslashgan	Ilmiy
4.	Estetik	Poetik

Til funksiyalari nazariyasi va u bilan bog'liq adabiy tilning funksional farqlanishi masalasi Praga lingvistik maktabi vakillarining ilmiy va amaliy faoliyatida muhim o'rinni egallaydi.

Praga tilshunoslari tilning barcha sath birliklarini funksional o'rganishga alohida ahamiyat berdilar.

### **1. Savol va topshiriqlar:**

1. V.Gumboldtning til haqidagi nazariy-falsafiy qarashlari qaysi asarida bayon etiladi?
2. Birinchi davrning muhim xususiyati nimada?
3. Hind-Yevropa tillarini qiyosiy-tarixiy o'rganish qaysi davrlarni o'z ichiga oladi?
4. V.Gumboldtning til shakli ta'limotining asosiy g'oyasi nimalardan iborat?

### 3. Glossariyni to'ldiring:

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning izohi
<i>antinomiya metodi</i>	<i>method of antinomy</i>	<i>метод антиномии</i>	
<i>grammatik kategoriya</i>	<i>grammatical categories</i>	<i>грамматические категории</i>	
<i>so'zning semantik strukturasi</i>	<i>semantic structure of the word</i>	<i>семантическая структура слова</i>	
<i>ichki forma</i>	<i>inner structure</i>	<i>внутренняя форма</i>	
<i>so'zning semantik strukturasi</i>	<i>semantic structure of a word</i>	<i>семантическая структура слова</i>	
<i>qiyosiy-tarixiy metod</i>	<i>comparative historical method</i>	<i>сравнительно-исторический метод</i>	

### Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Umarxo`jayev M.E. Umumiy tilshunoslik. – Andijon, 2007/2010.
2. Sodiqov A., Xolmurodov A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2014.
3. Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. – М., 2009.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2007/2010.

## V. КЕЙСЛАР БАНКИ

### Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'ulo1-variant

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas .

1. Keys bilan yakka tartibda tanishish.
2. Keys bilan jamoa bo'lib ishlash:
  - 2.1. Aqliy hujum: - muammoli vaziyatni hal etish g'oyalari generatsiyasi.
  - 2.2. Jamoaning bahosi va ustuvor g'oyalarning tanlanishi.
3. O'qituvchi rezyumesi.
4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash

### 2-variant

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'lchami unchalik katta emas.

1. Keys bilan yakka tartibda ishlash.
2. Jamoaning muammoli vaziyatni tahlil qilish va hal etish, bunday amaliy vaziyatdagi faoliyat bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan munozarasi.
3. O'qituvchi rezyumesi.
4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash

### 3-variant

Keys bilan ishlashga 1 ta o'quv mashg'uloti ajratilgan. Keys o'rtacha o'lchamli.

1. Keys bilan auditoriyadan tashqari vaqtda yakka tartibda ishlash.
2. Auditoriyada ishlash:
  - 2.1. Kichik guruhlarda ishlash: keys bilan yakka tartibda ishlash natijalarini muhokama qilish bo'yicha kichik guruhlardagi ishlar; jamoaning muammo yechimi bo'yicha taklif qilingan muqobil variantlarni tahlil qilishi va baholashi, ustuvor g'oyani tanlashi; muammoli vaziyatni hal etish dasturining ishlab chiqilishi.
  - 2.2. Guruh ishi taqdimoti.
  - 2.3. Muammoli vaziyat yechimi bo'yicha taklif etilgan variantlarning jamoadagi muhokamasi.
3. O'qituvchi rezyumesi.
4. Tinglovchilarning o'quv yutuqlarini baholash

## VI. GLOSSARIY

<b>Atamaning o'zbek tilida nomlanishi</b>	<b>Atamaning izohi</b>
<b><i>qiyosiy-tarixiy metod</i></b>	tillarni tarixiylik prinsipi asosida o'zaro qiyoslab o'rganuvchi, ularga xos umumiy va farqli jihatlarni aniqlovchi, shu yo'l bilan ularning qarindoshligini isbotlovchi usul.
<b><i>grammatik kategoriya</i></b>	bir xil grammatik hodisalar majmui, yig'indisidir.
<b><i>til funksiyalari</i></b>	nutqda turli maqsadlarda til vositalarining potensial xususiyatlaridan foydalanish: 1) tilning kommunikativ funksiyasi, tilning aloqa-aralashuv sifatidagi asosiy funksiyasi; 2) tilning estetik funksiyasi, uning aloqa-aralashuvda turli his-emotsiya, ta'sirchanlik ifodalash funksiyasi.
<b><i>ichki forma</i></b>	xalq ruhi bilan bog'lanib, xalq ruhining qandayligini aks ettiradigan hamda so'z orqali ifodalanadigan ma'nodir.
<b><i>so'zning semantik strukturasi</i></b>	so'zning leksik ma'no, ma'no o'ttenkasi va qo'shimcha o'ttenkalardan iborat strukturasi.
<b><i>strukturalizm</i></b>	til tuzilishini o'rganuvchi oqim.
<b><i>sistema</i></b>	qismlardan, bo'laklardan iborat bo'lgan murakkab butunlik bo'lib, bir-birini taqozo etuvchi, bir-biri bilan pog'onaviylik munosabatida turuvchi uzvlardan tashkil topgan ko'p tarmoqli hodisa.
<b><i>struktura</i></b>	xususiylik bo'lib, til qismlari, bo'laklari o'rtasidagi ichki munosabatdan tashkil topadi.
<b><i>iyerarxiya</i></b>	bir sath birliklari boshqa sathdagi o'zidan katta yoki kichik bo'lgan birliklar bilan pog'onaviy munosabatda bo'lishidir.
<b><i>semiotika</i></b>	belgilar sistemasi haqidagi fan bo'lib, belgilar, ularning tabiati, mohiyati, ko'rinishlari, amal qilishi kabilarni o'rganadi.
<b><i>lingvosemiotika</i></b>	tildagi belgilar tizimini boshqa nolisoniy belgilar va ramzlar

	bilan qiyoslab o‘rganadigan fan.
<i>paradigmatika</i>	til birliklarining umumiy grammatik ma’nolariga ko‘ra bir qatorga, paradigmaga birlashishi.
<i>sintagmatika</i>	til birliklarining o‘zaro semantik-sintaktik munosabatga kirishishi va gorizontal yo‘nalishda birikmalar hosil qilishi.
<i>izomorfizm</i>	lotincha “ <i>izoma</i> – o‘xshash, <i>morfo</i> – shakl” tilning turli sathlari birliklarining ichki tuzilishi o‘rtasidagi o‘xshashlik.
<i>lingvopoetika</i>	lingvistik birliklarning badiiy-estetik vazifalari, tilning konnotativ funksiyasini o‘rganadi.
<i>psixolingvistika</i>	insonlarning bir-biriga axborot berish va bir-biridan axborot qabul qilish jarayonini o‘rganuvchi yo‘nalishi.
<i>etnolingvistika</i>	grekcha “ <i>etnos</i> “ – xalq, qabila so‘zlaridan olingan bo‘lib, til amaliyoti va rivojlanishida etnomadaniyat, etnopsixologik omillarni o‘rganish.
<i>matematik lingvistika</i>	til birliklarini matematik tavsiflash usullarini ishlab chiqish va o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fan.
<i>sotsiolingvistika</i>	tilshunoslikning tilning ijtimoiy mohiyati va vazifasi, tilga sotsial omillarning ta’siri kabi masalalar bilan shug‘ullanuvchi yo‘nalishi.
<i>neyrolingvistika</i>	nutqiy faoliyatni bosh miya mahsuli sifatida o‘rganuvchi tarmog‘i.
<i>qiyosiy-tarixiy metod</i>	tillar va ularning tarixini qiyoslab o‘rganish.
<i>substansiya</i>	biror tovushni boshqa tovush bosishi.
<i>distributsiya</i>	tildagi unsurlarning gap tarkibida joylashish o‘rni, bir elementning boshqa element bilan birikish qobiliyati.
<i>bevosita tahlil metodi</i>	nutq birliklari (so‘z birikmasi va gaplar) tuzilishi, qanday qismlardan tashkil topishi, ular orasidagi munosabat, aloqalarni o‘rganish.

<b><i>transforma-tsiya tahlil</i></b>	konstruksiyalarning muayyan qoidalar asosida boshqa shaklga, ko‘rinishga ega bo‘lishi, ya’ni transformatsiyalanishi.
<b><i>avtomatik tahlil metodi</i></b>	ehm, kompyuterlar yordamida tilni lisoniy birliklar, formal qismlarga ajratish orqali bir tildagi lisoniy birliklar mazmunini boshqa tilga ko‘chirish.
<b><i>statistik tahlil metodi</i></b>	lisoniy birliklarning nutq faoliyatidagi, asosan matndagi qo‘llanish miqdorini tadqiq qilish.



## VII. АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Авлиёкулов Н.Х. Замонавий ўқитиш технологиялари – Тошкент, 2000й.
2. Авлиёкулов Н.Х. Ўқитишнинг модул тизими ва педагогик технологияси амалий асослари, - Бухоро, 2000й
3. Байсалов Ж. Модулли таълим технологиясини қўллаш. – «Халк таълими», 1999 6-сон 101 – 103 бетлар
4. Тешабаев А.Е. ва бошқалар Moodle тизими ва ундан фойдаланишни ўрганиш бўйича услубий қўлланма. - Андижон.2015
5. Абдуқодиров А. А., Пардаев А. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. Монография.-Т.: Фан, 2009.-145 б.
6. Абдуқодиров А. А. ва бошқ. Ахборот технологиялари //АЛ ва КХК учун дарслик.- Т.:Ўқитувчи, 2003.- 148 б.
7. Бегимкулов У.Ш. Замонавий ахборот технологиялари муҳитида педагогик таълимни ташкил этиш. // “Педагогик таълим” жур, № 1, 2004. Б.25-25.
8. Андерсен, Бент Б. Мультимедиа в образовании / Бент Б. Андерсен, Катя ван ден Бринк. – М.: Дрофа, 2007. – 224 с.
9. Бегимкулов У.Ш. Малака ошириш тизимида замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш. //” Халк таълими” жур. № 6, 2004. – Б.132-137.
- 10.Раҳманқулова С. И, Розиев Ф.З. Виртуал кутубхона. Тошкент, 2000. - 78 б.
- 11.Раҳманқулова С. И. Технология дистанционного обучения. Ташкент - VCU MCV, 2001. - 144 б.
- 12.Раҳмонов Ҳ. Ш. Электрон дарсликларни яратиш концепцияси ҳақида.- Бухоро: БДУ, 2003. – 36 б.